

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY TA’LIM, FAN VA
INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI**

CHIRCHIQ DAVLAT PEDAGOGIKA UNIVERSITETI

TURAKULOV BURI NORBOEVICH

**TALABALAR EMOTSIONAL INTELLEKTINING
INDIVIDUAL-TIPIK XUSUSIYATLARI**

Monografiya

**TOSHKENT
«FIRDAVS-SHOH»
2023**

UDK: 371. 3: 372. 361
KBK: 84.3(50‘)
K 74

Monografiya Chirchiq davlat pedagogika universitetining 2023-yil 12-aprel-dagi Ilmiy texnik kengashida ma’qullangan (2-sonli bayonnoma) va nashr etishga tavsiya etilgan.

Mas’ul muharrir:

Rasulov A.I – psixologiya fanlari doktori, professor.

Taqrizchilar:

Usarov J.E – pedagogika fanlari doktori, professor.

Jabborov X.X – psixologiya fanlari bo’yicha falsafa doktori.

Turakulov B.N.

Talabalar emotsional intellektining individual-tipik xususiyatlari. [Matn]: Monografiya/ B.N.Turakulov – Toshkent: «Firdavs-Shoh» nashriyoti. 2023-y. – 112 b.

Mazkur monografiyada psixologiyada emotsional intellekt muammosini o’rganishning ilmiy-nazariy asoslari, psixologiyada emotsional intellekt muammosini tushunishning mohiyati, holati, psixologik xarakteristikasi yoritib berilgan. Muallif talabalar emotsional intellektini tadqiq etishning metodologik jabhalari, psixologik strukturasi, psixologik xususiyatlari va metodikalari tavsifi ishlab chiqqan.

Monografiya psixolog o’quvchilar, pedagogika mutaxassisligi magistrantlari hamda oliy ta’lim muassasasida faoliyat yuritayotgan professor-o’qituvchilar va mazkur yo’nalishda izlanishlar olib borayotgan tadqiqotchilar uchun mo’ljallangan.

ISBN 978-9910-754-09-8

© B.N.Turakulov 2023
© «Firdavs-Shoh» nashriyoti, 2023

SO‘Z BOSHI

Jahondagi psixologiya sohalarining bugungi kundagi tadqiqotlarida zamonaviy bilim, ilg‘or xorijiy tajribalar, innovatsion pedagogik texnologiyalarni keng joriy etish asosida, inson intellekti va uning ijtimoiy muhit bilan aloqasi, intellekt turlari va uning inson faoliyatidagi imkoniyatlari, intellekt turi darajasini ta‘minlovchi psixologik unsurlar kabi masalalarga alohida e‘tibor qaratilmoqda. Xususan, 22 ta etnik yo‘nalishning emotsional intellekt (EQ) muammosi bo‘yicha tadqiqotlar amalga oshirilganligi, IQ va EQ masalalariga oid 15 dan ortiq mamlakatlarda normativ turdagi hujjatlar mavjudligi, emotsional intellekt fenomenining boshqa turlari sotsial intellekt va umumiy intellekt kabi dunyo mutaxassislari tomonidan dolzarb muammo sifatida o‘rganilmoqda¹.

Dunyoda emotsional his etish, boshqalarni tushunish xususiyatlarini shakllantirish orqali affektiv buzilishlarning oldini olish, ijtimoiy vaziyatlarning mazmunini tahlil qilish orqali emotsional intellektni rivojlantirish, emotsional intellektini shakllantirish asosida shaxsning psixologik madaniyatini oshirish, emotsional intellekt shaxs qaror qabul qilishining yetakchi omili yo‘nalishlarida ilmiy izlanish olib borilmoqda. Shuningdek, ta‘lim muhitida bo‘lg‘usi pedagoglarning individual-tipik xususiyatlari orqali ularning kasbiy faoliyatga tayyorligi, individual-tipik xususiyatlar asosida talabalar ta‘lim yo‘nalishiga ko‘ra emotsional intellekt xususiyatlarini aniqlash va ularning ta‘lim yo‘nalishi xususiyatlariga ko‘ra kasbiy tayyorgarlikda qo‘llashning psixologik xossalarini tadqiq etish dolzarblashmoqda.

Respublikamizda so‘nggi yillarda zamonaviy ta‘lim tizimida o‘qituvchining shaxsiy va kasbiy kamolotini ta‘minlashning me‘yoriy-huquqiy asoslari yaratilmoqda. Shu nuqtai nazardan «oliy ta‘lim bilan qamrov darajasini 50 foizga yetkazish va ta‘lim sifatini oshirish», «...kadrlar buyurtmachilari takliflari asosida qabul parametrlariga ko‘ra amalga oshirish», «...oliy ta‘lim muassasalarining QS va TNE xalqaro reytinglariga kirishi uchun maqsadli dasturni ishlab chiqish»² vazifalari

¹ World Intelligence Network. IQ i genetika. Arxivnaya kopiya ot 21 noyabrya 2017. – P. 19. Wayback Machine.

² «2022-2026 yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida». O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni, 28.01.2022 yildagi PF-60-son Qonunchilik ma‘lumotlari milliy bazasi, 29.01.2022 y., 06/22/60/0082-son, 18.03.2022 y., 06/22/89/0227-son, 21.04.2022 y., 06/22/113/0330-son.

belgilab berildi. Ushbu vazifalarning ijrosini ta'minlashda yoshlar ta'lim-tarbiyasiga oid islohotlar tufayli, yurtimiz kelajagi uchun yuqori malakali mutaxassislarni, yuksak intellektual, ma'naviy-axloqiy salohiyatga ega bo'lgan yoshlarni tarbiyalash ishlariga alohida e'tibor qaratilmoqda.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 28 yanvardagi PF-60-son «2022-2026 yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida»gi Farmoni, 2017-yil 20 apreldagi PQ-2909-son «Oliy ta'lim tizimini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida», 2018-yil 5 iyundagi PQ-3775-son «Oliy ta'lim muassasalarida ta'lim sifatini oshirish va ularning mamlakatdagi keng ko'lamli islohotlarda faol ishtirokini ta'minlash bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida»gi qarori, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019 yil 7 iyundagi 472-son «Psixologiya sohasida kadrlarni tayyorlash tizimini yanada takollashtirish va jamiyatda huquqbuzarliklarning oldini olish chora-tadbirlari to'g'risida»gi qarorlari hamda mazkur faoliyatga tegishli boshqa me'yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishga ushbu dissertatsiya tadqiqoti muayyan darajada xizmat qiladi.

I BOB. PSIXOLOGIYADA EMOTSIONAL INTELLEKT MUAMMOSINI O‘RGANISHNING ILMIY-NAZARIY ASOSLARI

1.1-§.Psixologiyada emotsional intellekt muammosini tushunishning mohiyati

Ma'lumki, intellekt fenomeni o'ziga xos psixologik jarayon bo'lib, u insonning yangi vaziyatlarga moslashuvini, tajriba asosida mavhum tushunchalarni tushuna olishi va uni amaliyotga qo'llay olish qobiliyatini hamda axborotlarni idrok qilish tezligini ta'minlovchi qobiliyatlari yig'indisi sanaladi.

Hozirga qadar, inson intellektini tushuntirish borasida ko'plab tadqiqotlar amalga oshirilgan bo'lib, ularning aksariyati umumiy intellekt muammosiga bag'ishlangan. Mohiyatan, umumiy intellekt o'z mazmunida insondagi qobiliyatlar yig'indisi, bilish jarayonlaridagi o'ziga xos xususiyatlar, madaniyatlararo farq, ijtimoiy – demografik omillar, yashash muhitidagi shart-sharoitlar kabilar bilan ham xarakterlanadi. Biroq, o'tgan asrning 90 yillarida psixologik tadqiqotlarda “emotsional intellekt” tushunchasi ilk bor qo'llana boshlandi.

Dastlab, mazkur tushuncha bilan bog'liq g'oyalar tadqiqotchilar G.Ayzenk, Dj.Gilford hamda G.Gardnerlar tomonidan amalga oshirilgan “ijtimoiy intellekt” borasidagi tadqiqotlarda o'z aksini topgan³. Mualliflar o'z g'oyalarida, emotsional intellektni shaxslararo munosabatlardagi moslashuvchanlik qobiliyati hamda ijtimoiy faoliyatdagi insonning muvaffaqiyatli harakatlari deb ta'riflashgan. Biroq, bu ta'riflar emotsional intellekt tushunchasi mohiyatini aniq tushuntirish uchun yetarli emas edi.

Emotsional intellekt tushunchasi fanga ilk bor, ilmiy asosda tadqiqotchilar Dj.Meyer hamda P.Soloveylar tomonidan kiritilgan. Ularing fikricha, emotsionala intellekt –bu his-tuyg'ularni ifoda etish, tushunish, tartibga solish, boshqarish hamda fikrlar va tuyg'ularni assimiliatsiya qilish jarayonidir⁴.

Bundan tashqari, Dj.Meyer va P.Soloveylar emotsional intellekt bo'yicha o'ziga xos model va metodologiya ishlab chiqqan olimlar

³ Ayzenk G. Yu. Intellekt: nov y vzglyad // Vopros psixologii. 1995. – N 1. S. 111– 131.

⁴ Meyer Dj., P.Solovey, D. Karuzo. Emotsionaln y intellekt. – M.: Institut psixologii RAN, 2010. – S.92.

sanaladi. Keyinchalik, tadqiqotchi D.Goulman o'zining "Emotsional intellekt" nomli kitobini nashr etib, psixologiyada emotsional intellektni tadqiq etishning yangi yo'nalishiga asos soldi. Muallif o'z asarida, emotsional intellektni bosh miya yarim sharlari va mendal soha bilan uzviy bog'liqligini shunday ta'riflagan edi: " Miya yarim sharlarida qayta ishlanayotgan emotsiyalarimiz haqidagi axborotlar bu ongsiz xarakterda bo'lib, ular qayta ishlanib bo'lingandan so'ng onglanadi. Boshqa insonlarning emotsional kechinmalarini tushuna olishimiz va boshqarishimiz hissiy donolik emas, bu emotsional kompetentlik tushunchasi bilan tushuntirilishi kerak". Emotsional kompetentlik mazmunida hissiy o'z-o'zini anglash, o'z-o'zini boshqarish, ijtimoiy munosabatlarni tushunish va boshqarish kabilar yotadi"⁵. Demak, emotsional kompetentlik o'z mazmunida his-tuyg'ularni boshqarish va tushunish, ijtimoiy munosabatlarda emotsiyalarni tartiblash kabilarni ta'minlaydi.

Bundan tashqari, D.Goulmanning ta'kidicha, intellekt va emotsional intellekt alohida farqqa ega bo'lgan, bir-biriga zid bo'lmagan tushunchalar sanaladi. Va emotsional intellekt o'z mazmunida quyidagi psixologik komponentlarni qamrab oladi⁶:

- 1.O'z – o'zini anglash;
- 2.O'z – o'zini boshqarish;
- 3.Ijtimoiy vaziyatni tez tushunish;
- 4.O'zaro munosabatlarni boshqarish, samarali muloqot uslubi.

Yuqoridagigi mulohazalardan farqli o'laroq, tadqiqotchilar R.D. Roberts, Dj.Mettyus, M.R.Zaydner hamda D.V.Lyusinlar emotsional intellektni muammosida o'ziga xos yondoshuvni ilgari suradilar. Ya'ni mualliflarga ko'ra, emotsional intellekt kognitiv va shaxslilik sifatlaridan iborat bo'lgan murakkab aqliy jarayondir⁷. Ushbu ikki muhim unsur, emotsional intellektni yorituvchi kognitiv, motivatsion, shaxslilik moddellari orqali tushuntiriladi.

Avvalambor, emotsional intellekt tushunchasi mohiyatini anglash masalasida o'ziga xos yondoshuv mavjud bo'lib, unda ushbu fenomenning qo'llanilish evolyusiyasini hisobga olish ahamiyatli sanaladi. Quyida emotsional intellekt tushunchasining psixologiya

⁵ Goulman D. Emotsionaln y intellekt / Daniel Goulman; per. s angl. A. P. Isaevoy. - M.: AST: AST Moskva: Xranitel, 2012. – S.57.

⁶ Goulman D. V labirinte emotsionalnogo intellekta //Otdel kadrov. -2012, - № 8, – S. 98–100.

⁷ Roberts R. D. Mettyus Dj., Zaydner M., D. V. Lyusin Emotsionaln y intellekt: problem teorii, izmereniya i primeneniya na praktike // Psixologiya. № 17. 2012.– S. 3–23.

fanida e'tirof etilishi bilan bog'liq ayrim xronologik bosqichlarga e'tibor qaratamiz.

Gumanistik psixologiya maktabining mashhur vakillaridan biri Abraxam Maslou, 1950 yilda "o'zini o'zi faollashtirish" tushunchasini fanga kiritgach, g'arb psixologiyasida "insonparvarlik" yanada ortdi. Va shaxsni tadqiq qilishda jiddiy integrallik, ya'ni inson tabiatiga xos kognitiv va affektiv jihatlar uyg'unligi keng e'tiborga olindi⁸. Demak, o'zini o'zi faollashtirish xususiyati bu, emotsional intellektga xos bo'lgan tarkibiy elementlardan biridir.

Keyinchalik, 1985 yilda tadqiqotchi Reven Bar-On ilk bor EQ-emotional quotient, emotsionallik koeffitsienti va shunga mos tarzda IQ- intellekt koeffitsienti tushunchasini fanga kiritdi. Muallifning bunday ishlari, emotsional intellektni tadqiq etishning amaliy amaliy masalalari uchun katta imkoniyat yaratdi.

"Emotsional intellekt" tushunchasining ilk bor fanda qo'llanilish sanasi 1990 yilga asoslanilsada, keyinchalik D. Golman ham muammo borasida ko'plab ilmiy – ommabop ishlarni amalga oshirdi. Biroq, tadqiqotchilar P.Solovey va D.Mayerlar tomonidan amalga oshirilgan ishlar, hozirgi zamon psixologlari tomonidan ko'proq e'tirof etiladi. Mualliflar nazarida, emotsional intellekt – bu tuyg'ularda ifodalanuvchi shaxsning qabul qilish va tushunish qobiliyatini, hissiy ifodalarni boshqarish qobiliyatini kabilarni anglatib, uning mazmuni to'rt asos orqali tushuntiriladi⁹:

- Emotsiyalarni his qilish yoki qabul qilish qobiliyati ya'ni o'zini va o'zgalarning emotsiyalarni his qilish yoki tan olish qobiliyati;

- Aqlga yordam beruvchi o'z emotsiyalarini yo'naltirish qobiliyati;

- U yoki bu emotsiyalar ifodalarini tushunish qobiliyati;

- Emotsiyalarni boshqarish qobiliyati.

Yuqorida tadqiqotchilar tomonidan tasnif etilgan har bir komponentlar, emotsional intellekt namoyon bo'lishining asosiy omillari hisoblanadi.

Emotsional intellektni tushunishning o'ziga xos ta'rifi, D. Karuzo ishlarida ham aks etgan bo'lib, uning aytishicha "emotsional intellekt" hissiyotlardan aqlning ustunligi emas, u har ikki

⁸ Maslou A. Motivatsiya i lichnost / A. Maslou. SPb.: Yevraziya, 2001.– S.98.

⁹ Mayer J. D., Salovey P., Caruso D. R., Sitarenios G. Emotional intelligence as a standard intelligence // Emotion, 2001. № 1. P. 232 – 242.

jarayonning munosib kesishgan nuqtasidir¹⁰. Demak, emotsional intellekt hisiyot va aqlning o‘zaro birlashmasi mahsuli sanaladi.

Boshqalardan farqli o‘laroq, D.Golmenning fikricha, emotsional intellekt – bu o‘zi va o‘zgalarning harakat motivlarini anglash orqali, o‘zini va o‘zgalarning hissiy kechinmalari to‘liq tushunish qobiliyatidir¹¹. Boshqacha aytganda, emotsional intellekt – bu o‘zini va o‘zgalarning emotsiyalarini anglash, o‘zi va o‘zgalarning emotsiyalarini nazorat qobiliyati bo‘lib, shu asnoda bizning o‘zaro munosabatlarimiz amalga oshadi.

R.K.Kooperning ta’rificha, emotsional intellekt – bu o‘z hissiy holatini boshqara olish qobiliyati sanalib, u refleksiv ko‘nikmalar orqali amalga oshadi. Refleksiya esa, o‘z mazmunida, o‘zini va o‘zgalarni anglash, baho berish, qaror qabul qilish, xulosa chiqarish kabilar bilan tavsiflanadi¹².

Boshqalardan farqli o‘laroq, G.Mattevs ham emotsional intellekt fenomenini tavsiflashga harakat qilgan bo‘lib, uning nazaricha, emotsional intellekt – atrof muhit bilan samarali aloqa qilish hamda o‘zining yashirin motivlari va emotsiyalarini tushuna olish tajribasidir¹³.

Emotsional intellektni nokognitiv jarayonlar bilan tushuntirish holati, R.Bar–Onning izlanishlarida aks etgan bo‘lib, unga ko‘ra emotsional madaniyatning besh tarkibiy qismi ajratiladi. Ularga¹⁴:

- Ichki shaxslilik sohada o‘zini o‘zi tahlil etish, assertivlik, mustaqillilik, o‘zini o‘zi hurmat, o‘zini o‘zi namoyon qilish;
- Shaxslararo jabhada empatiya, ijtimoiy mas’uliyat ko‘nikmalari;

¹⁰ Caruso D, R. Mayer J. D., Salovey P., Emotional Intelligence as Zeitgeist, as Personality, and as a Mental Ability / Handbook of emotional intelligence: Theory, development, assessment, and application at home, school, and in the workplace // Ed. by Bar-On R., Parker J. D. A. San Francisco, CA: Jossey-Bass, 2000. P. 92-117.

¹¹Goulman, D. Emotsionalnoe liderstvo: Iskustvo upravleniya lyudmi na osnove emotsionalnogo intellekta Tekst. / Deniel Goulman, Richard Boyatsis, Enni Makki; Per. s angl. 3- izd. - M.: Alpina Biznes Buks, 2008. – S. 49.

¹²Cooper R.K. Executive EQ: Emotional intelligence in leaders and organizations / R.K. Cooper, A. Sawaf// New York: GrossetPutnam, 1997.– P. 102.

¹³Matthews G. Emotional intelligence: Science and myth / G. Matthews, M. Zeidner, R.D. Roberts. Cambridge, MA: MIT Press, 2004.– P.92.

¹⁴Bar-On, R., Parker J.D.A. Emotional and social intelligence : Insights from the Emotional Quotient Inventory // Handbook of emotional intelligence, San Francisco : Jossey-Bass, 2000. – P. 145.

- Adaptivlilik jabhasida muammolarni hal eta olish, moslanuvchanlik, haqiqatni tushunish;
- Stressdan chiqish layoqati hamda stress holatini ko'tara olish;
- Optimizm fenomeni va hokazo.

Emotsional intellekt fenomeni borasida, keng qamrovli tadqiqotlar olib borgan rus psixologi D.V.Lyusinga ko'ra, emotsional intellektga xos ikki jihat mavjud ya'ni "ichki shaxslilik" va "shaxslararo" jihat. Uning nazaricha, emotsional intellekt quyidagilar orqali tushuntirilishi lozim¹⁵:

- Emotsiyani anglash ya'ni o'zi yoki o'zga insonlarning emotsional his-tuyg'ulari tilini tushuna olish;
- Emotsiyalarni identifikatsiyalash ya'ni farqlash, ajartish, kerakli o'rinlarda to'g'ri qo'llay olish;
- Emotsional holatlarni keltirib chiqaradigan sabab va oqibatlarni payqay olish ko'nikmasi;
- Keskin emotsiyalarni yetarlicha sekinlashtirish, tuyg'ularning intensivligini nazorat qilish;
- Ekspressiv ifodalarni oson tushunish;
- Faoliyatida va munosabatlarda u yoki bu emotsiyalarni chaqira olish tajribasi. Muallif tasnif etgan ushbu unsurlar, mehnat samaradorligini belgilovchi omillar bo'lmasligi mumkin. Biroq, faoliyatdagi muvaffaqiyatlarni ta'minlovchi tizimlar hisoblanadi.

Emotsional intellekt emotsional kompetentlilik bilan o'zaro bog'liq va unga asoslanadi. Emotsional intellektning muayyan darajasi emotsiyalar bilan bog'liq holda aniq kompetensiyalarni o'rganish uchun zarur. Masalan, tanish qobiliyati insonda o'zga insonning hissiyotlarini anglash va ularni ruhlantirish, ularga ta'sir etish kabi qobiliyatlarni rivojlantirishga keng imkon beradi.

V.S.Yurkevich o'z izlanishlari va boshqa tadqiqotchilarning izlanishlariga asoslangan holda, 95% intellektual jihatdan salohiyatli bo'lganlar, emotsional intellektni amalga oshirishida qiyinchiliklar ko'proq duch kelishini mumkin deb ta'kidlab o'tadi.¹⁶ Shuningdek, muallif bolalarda uchraydigan "emotsional munosabatlardagi infantillik"

¹⁵ Matthews G. Emotional intelligence: Science and myth / G. Matthews, M. Zeidner, R.D. Roberts. Cambridge, MA: MIT Press, 2004. – P.52.

Bar-On R., Parker J.D.A. Emotional and social intelligence : Insights from the Emotional Quotient Inventory // Handbook of emotional intelligence, San Francisco : Jossey-Bass, 2000. – P. 363.

¹⁶Yurkevich B.C. Problema emotsionalnogo intellekta / B.C. Yurkevich // Vestnik prakticheskoy psixologii obrazovaniya. 2005. - № 3 (4). - S. 4-10

masalasini o'rganib, uni bilim olish bilan bog'liq bo'lmagan faoliyatga qiziqishning so'nishi, o'z tengqurlari bilan muomalaga kirishishdagi qiyinchiliklar deb e'tirof etadi.

Ta'kid joizki, 2000 yillarning boshida Aqshda "IQ gets you hired, but EQ gets you promoted", ya'ni IQ kuchi bilan ishga kirasan, biroq, EQ bilan mansabga erishasan, degan so'zlar keng tarqalgan. Bu esa, D.Goulmanning emotsional intellekt strukturasi haqidagi qarashlarini tubdan o'zgartirib yubordi. Endi muallif nazaricha, emotsional intellekt strukturasi quyidagilarni ham qamrab olishi lozim. Ya'ni ularga¹⁷:

- O'zini o'zi anglash;
- O'zini o'zi nazorat qilish;
- O'zaro munosabatlarni boshqarish va ijtimoiy tushunish kabilar kiradi. Shu bilan birga D.Goulman, bo'lajak pedagoglarga xos quyidagi qobiliyat turlarini rivojlantirish zarurligini taklif etadi¹⁸:
 - O'z emotsiyalarini tushunish qobiliyati;
 - Shaxsiy emotsiyalar nazorati ya'ni frustratsiya holatida sabr-toqatlilik, g'azabni boshqarish, tazyiq va dashnomlardan qochish, emotsional portlashlarsiz g'azabni ifodalashdan qochish;
 - Oila, maktab va o'z o'ziga munosabatlarda pozitivlikni his qilish; stressni boshqarish, ijtimoiy xavotir va yolg'izlikni bartaraf etish)
 - O'zini motivlashtira olish ya'ni mas'uliyatlik, ishga diqqatni jamlash;
 - O'zgalarning emotsiyalarini tushunish ya'ni empatiyaning ustunligi, o'zgalarning istiqbolini qo'llab - quvvatlash, boshqalarni tinglash ko'nikmasi;
 - Ijtimoiy ko'nikmalar – bu boshqalar bilan o'zaro munosabatlarni tushunish, nizolarni oson hal etish, muvoqotmandlik, ochiqko'ngillilik, do'stonalilik, qiziquvchanlik va hokazo. Agar bo'lajak o'qituvchilarda ushbu sifatlar shakllantirilmasa, unda ta'lim tarbiyaning samaradorligi haqida gapirish haqiqatdan holi sanaladi.

Xorij tadqiqotchisi Djampon Margaret ham emotsional intellekt tabiatini tahlil etish asosida, unga aloqador quyidagi omillar tasnifini ajratib o'tadi:¹⁹.

¹⁷Goulman D., Boyatsis, R., Makki, E. Emotsionalnoe liderstvo : Iskustvo upravleniya lyudmi na osnove emotsionalnogo intellekta / D. Goulman, R. Boyatsis, E. Makki, per. s angl. M. : Alpina Biznes Buks, 2008. – S.128.

¹⁸Goulman D. Emotsionaln y intellekt samopoznaniya emotsiy, individualost, sochuvstvie i drujelyubie s okrujayuyimi, Perevod Nasrin Parsa, Izdatelstvo "Roshd", Tegeran, 2004. – S.83.

¹⁹Djampon Margaret, Emotsionaln y intellekt, Perevod Reza Momen Xani, Izdatelstvo Instituta Iz Iran, Tegeran, 2007. – S.35.

- Ota yoki onadan meros o‘tuvchi intellektual daraja;
- Miya yarim sharlar xususiyatlari;
- Temperament xususiyatlari;
- Emotsional intellektga ta’sir etuvchi ijtimoiy muhit;
- Atrofdagi kishilarning bola harakatlariga emotsional javobi;
- O‘z o‘zini anglash;
- Emotsional ishonch;
- Ota –onaning bilim darajasi;
- Gender tafovutlar – qizlarda o‘zini o‘zi nazorat qilish va o‘zini tuta bilishlik, o‘g‘il bolalarda noziklik va empatiya;
- Tashqi nazorat;
- Diniy e’tiqodlilik;
- Qadriyatlilik;
- Milliy ong;
- Altruizm;
- Tolerantlilik;
- Ijtimoiy ochiqlik;
- Ijtimoiy onglilik.

Tasnif etilgan ushbu sifatlar, emotsional intellekt tabiatini tushuntiruvchi eng muhim xususiyatlar turkumi hisoblanadi.

Shuni alohida yodda tutish lozimki, emotsiyalarni boshqarish deganda, uni “yo‘qotish” yoki “to‘xtatish” nazarda tutilmaydi. Balki, emotsiyalarni boshqarish deganda, o‘z emotsiyalarni ketma – ket bog‘lay olish, birini ikkinchisidan farqlay bilish;

– Empatiyani rivojlanganligi – bu muomala jarayonida muloqotdoshlarning emotsional talablariga adekvat javob qaytarish qobiliyatidir;

– Muomalani silliq tashkil eta olish va hokazo.

Demak, emotsiyalarni boshqarish – bu o‘z hayot yo‘lida frustratsiyali va agressiyasiyali holatlarni keskinlashuvini kamaytira olish kabilar sanaladi..

Umuman olganda, emotsional intellekt tabiatini yoritishda, hozirga qadar fanda e’tirof etilgan, intellekt masalasida yaratilgan psixologik yondashuvlarning umumiy holatini tahlil etish barcha uchun qoida sanaladi. Bu borada tadqiqotchi F.V. Iskanderov shunday deydi: “intellekt masalasida tadqiqot olib boruvchi har bir psixolog, quyidagi yondoshuvlar mohiyatini o‘zlashtirgan bo‘lishlari shart sanaladi.

Muallifning ta'kidicha, inson intellekti mohiyatini tushuntiruvchi quyidagi asosiy yondashuvlar farqlanadi²⁰:

- Intellektning fenomenologik yondashuvi;
- Intellektning genetik yondashuvi;
- Intellektning sotsio-madaniy yondashuvi;
- Intellektning jarayonli va faoliyatli yondashuvi;
- Intellekga oid ta'limiy yondashuv;
- Intellektning axborotlar yondashuvi;
- Intellektning funksional yondashuvi;
- Intellektning regulatsion yondashuvi va hokazo.

Aslida maqsadimi, intellektning umumiy yondashuvlari tabiatiga xos jihatlarni va ular borasidagi ilgari surilgan ilmiy g'oyalarni chuqur tahlil etish emas, balki umumiy intellektning emotsional intellekt bilan tutashganlik jihatlarni ilmiy asoslash hisoblanadi. Shuning uchun, shaxs emotsional intellektini o'rganish jarayonida, uning strukturaviy tarkiblariga xos turli konseptual qarashlarni chetda qoldirib bo'lmaydi..

Xotima qilib aytganda, faoliyatda maqsadga erishish uchun avvalo, o'zgalarning hissiy reaksiyalarini oldindan seza olish va tushunish, atrofida bilan o'zaro yoqimli munosabatlar o'rnatish shuningdek, boshqa insonlar bilan o'zaro til topa olishlik kabi holatlarda shaxslilik xususiyatlari o'ta muhim hisoblanadi. Keyingi paragraf biz, ayni shu masalalarga oid emotsional intellekt rivojlanishining psixologik xarakteristikasi haqida batafsil to'xtalib o'tamiz.

²⁰Iskanderova F.V., Emotsionaln y intellekt kak osnova mejlichnostnogo vzaimodeystviya, jurnal Vestnik KASU №1, 2006. –S.48.

1.2-§. Psixologik tadqiqotlarda emotsional intellektning o'rganilganlik holati

Emotsional intellekt bilan bog'liq psixologik tadqiqotlar garchi uzoq tarixga ega bo'lmasada, uning asl mohiyatini tushuntiruvchi ko'plab e'tiborga molik tadqiqotlar tizimini keltirib o'tish mumkin. Emotsional intellektni faol o'rgangan xorij tadqiqotchilari sifatida Dj. Goulman, G. Orme, Dj. Meyer, P. Solovey, D. Karuzo, R. Bar-On, Dj. Sayrochi, P. Poberts, Dj. Mettyus, M. Zaydner, P. Lopes, R. Sternberg, Dj. Blok, M. Kets de Vris kabi yetuk olimlarni misol qilish mumkin²¹. Ushbu nomlari zikr etilgan xorij tadqiqotchilari asosan, emotsional intellektning tabiati, uning strukturasi, emotsional intellekt modellari kabi masalalarda keng hajmdagi tadqiqotlar olib borishgan.

Rus psixologiyasida ham emotsional intellekt borasida o'ziga xos maktab yo'nalishlari mavjud. E'tiborga molik ilmiy izlanishlar tadqiqotchilardan D.V. Lyusin, G.G. Garskova, E.L. Nosenko, N.V. Kovriga, O.I. Vlasova, S.P. Derevyanko, M.A. Manoylova, G.V. Yusupova, A.S. Petrovskaya, T.P. Berezovskiy, A.P. Lobanov hamda Ye.A. Lobanovlar tomonidan amalga oshirilgan²². Mazkur maktab vakillari xorij tadqiqotchilaridan farqli ravishda, emotsional intellekt muammosining fenomenologik, ontogenetik, strukturaviy, funksional kabi jihatlariga ko'proq e'tibor qaratishgan. Quyida emotsional intellektning psixologik tadqiqotlarda o'rganilganligi yuzasidan, tadqiqotchilarning fikr – mulohazalarini tahlil etishga harakat qilamiz.

Tadqiqotchilardan P.Solovey emotsional intellekt va uning strukturasi tadqiq etar ekan, unga aloqador quyidagi qobiliyat turlarini ajratadi:

- O'z his-tuyg'ularini tan olish qobiliyati;
- Hissiyotlarni mahorat bilan boshqarish qobiliyati;
- Boshqa insonlarning his-tuyg'ularini anglash, o'zini o'zi motivatsiya qilish qobiliyati.

Mazkur yondoshuvning kamchilik jihati shuki, muallif emotsional intellektni umumiy aql bilan almashirib qo'ygan. Ya'ni masalaning bir jihati kognitsiyalarga urg'u bergan.

²¹ Andreeva I. N. Emotsionaln y intellekt kak fenomen sovremennoy psixologii / I. N. Andreeva. – Novopolosk : PGU, 2011. – S.35 -36.

²² Degtyarev A.V. «Emotsionaln y intellekt»: stanovlenie ponyatiya v psixologii // Psixologicheskaya nauka i obrazovanie. 2012. № 2. S. 170-180.

Biroq, G.G. Gorskova o'z tadqiqotlarida, P.Solovey tomonidan ilgari surilgan g'oyalarni qo'llab quvvatlaydi. Ya'ni his-tuyg'ular inson hayotining turli sohalariga va uning o'ziga bo'lgan munosabatini aks ettiradi, aql esa bu insoniy munosabatlarni tushunishga xizmat qiladi deb uqtiradi. Shuningdek, muallif emotsional intellektni hissiyotlarda aks etgan munosabatlarni tushunish va ularni intellektual jarayonlar asosida tahlil qilish qobiliyati deb ta'riflaydi²³.

Bundan tashqari, mazkur yondoshuvga ko'ra, insondagi emotsional intellektning zaruriy sharti – bu sub'ektning tomonidan o'z hissiyotlarni tushunishdir. Emotsional intellektning yakuniy mahsuli – bu shaxsiy ma'noga ega bo'lgan voqe'alarni differensial baholash asosida, hissiyotlarni aks ettirish, ularni talqin qilish asosida qaror qabul qilish jarayonidir. Shu bilan birga emotsional intellekt insonning maqsadlariga erishishi uchun turli xil usullarni yaratadi. Bir so'z bilan aytganda, ichki dunyo va voqe'lik o'rtasida o'zaro aloqani ta'minlaydi.

Ye.P. Ilinning aytishicha, hissiy idrok o'z mazmunida, qator intellektual operatsiyalarga sabab bo'lib, oxir – oqibat u emotsional intellektning vazifasi bilan tugaydi²⁴. Demak, bizning idrok jarayonimiz ham emotsional intellektning tarkibiy qismi sifatida, o'ziga xos ahamiyatga egadir.

Fransuz psixologi T.Ribo esa, o'z tadqiqotlarida psixologik, fiziologik, patologik o'zgarishlarni ishlatib, emotsional intellektni tushuntirish borasida, affektiv xotira turi mavjudligi ilmiy asoslab berdi²⁵. Ya'ni, affektiv xotira bizning hissiy sohamizga javob beruvchi psixologik jarayondir.

T.I.Solodkova P.Solovey va J.Meerlar tomonidan yaratilgan emotsional intellekt modelini tahlil etar ekan, inson emotsional intellekti uchun zarur sanalgan, eng maqbul qobiliyat turlarini ajratib o'tadi. Ular quyidagilar²⁶:

- Hissiyotlarni to'g'ri idrok etish, baholash va ifoda etish qobiliyati;
- Fikrlash samaradorligini oshirish uchun his-tuyg'ularga kirish va ularni uyg'otish qobiliyati;

²³ Gorskova G. G. Vvedenie ponyatiya emotsionalnogo intellekta v psixologicheskuyu kulturu. Ananevskie chteniya: Tez. nauch.-prakt. konf. - SPb. 2004. – S.56.

²⁴ Ilin Ye.P. Emotsii i chuvstva. / Ye.P. Ilin. - SPb: «Piter», 2001. – S.87.

²⁵ Ribo T. Volya v yee normalnom i bolezennom sostoyanii: Per. s 8-go, dop. frans. izd. / Pod. red. I. Abolenskogo, 2-ye izd. SPb.: Izd-vo V.I. Gubinskogo, 1990. – S.61.

²⁶ Solodkova T.I. Emotsionaln y intellekt kak lichnostn y resurs preodoleniya sindroma v goraniya i yego razvitie u pedagogov: avtoreferat dis. ... kandidata psixologicheskix nauk. Irkutsk, 2010. – S.33.

- Hissiyotlarni, hissiy bilishni anglash qobiliyati;
- Hissiyotlarni ongli ravishda tartibga solish, hissiyotlarni boshqarish;

- Hissiy va intellektual rivojlanish darajasini oshirish qobiliyati.

Ushbu yondoshuvga muvofiq, bizning barcha hissiy holatlarimiz hissiy xotira funksiyalari orqali amalga oshadi. Ya'ni, hissiy xotiraga xos fiziologik reintegratsiya (qayta tiklash) jarayoni, o'tmish bilan bog'liq hissiy kechinmalarimizni qayta tiklashga katta yordam beradi.

Ba'zi tadqiqotlarda, emotsional intellektni insonning aql darajasi bilan bog'lash haqiqatdan holi ekanligi ta'kidlanadi. Masalan A. Adlarning aytishicha, emotsional intellekt ta'lim va mavqe' kabi omillar bilan bog'liq emas, balki uni shakllantiruvchi o'ziga xos psixologik omillar mavjud. Shuningdek, insonlarning ishga yoki ta'lim muassasalariga qabul qilishda, test natijalari shaxsiy o'zini o'zi anglash va o'z-o'zini bilish uchun ahamiyatli emas, bu ichki aqlning tarkibiy qismlaridan biridir²⁷. Darhaqiqat, emotsional intellekt uchun maxsus ta'lim olish va yuqori shart –sharoitlar shart emas.

Shu o'rinda, J.Mayer, P. Soloveylar tomonidan ishlab chiqilgan emotsional intellekt modeli mazmuniga e'tibor qaratishimiz maqsadga muvofiq sanaladi. Modelning tarkibiy qismlari quyidagilar bilan xarakterlanadi:²⁸

- Hissiyotlar haqidagi bilimlar;
- Hissiyotlarni boshqara olish;
- Hissiyotlarni anglash;
- O'zini o'zi rag'batlantira qobiliyati va ijtimoiy munosabatlarni yenga olish qobiliyati va hokazo.

Yuqoridagi tasniflardan farqli o'laroq, D. Goulman emotsional intellektga xos bo'lgan yanada to'liq modelni taklif etadi. Ushbu modelga ko'ra, emotsional intellektning yuqori darajasi quyidagi qobiliyat turlari bilan tavsiflanadi²⁹:

1. O'z-o'zini anglash qobiliyati;
2. O'z-o'zini tartiblay olish qobiliyati;
3. O'zini o'zi Motivatsiyalay olish qobiliyati;
4. Hamdardlik qobiliyati;
5. Ijtimoiy ko'nikmalarga egalik qobiliyati.

²⁷ Adler A. O nervicheskom xaraktere. SPb.: Universitetskaya kniga, 1997. – S.145.

²⁸ Mayer J. D., Salovey P. The Intelligence of Emotional Intelligence // Intelligence, 1993. № 17. P. 433 – 442.

²⁹ Goulman D. Emotsionaln y intellekt. M.: ACT, 2008. – 480 s.

Yuqorida tasnif etilgan model boshqa modellardan farq qilib, unda asosan Goulman shaxsga xos bo'lgan shaxslilik va ijtimoiy fazilatlariga ko'proq urg'u bergan.

Ayrim tadqiqotlarda keltirilishicha, emotsional intellekt boshqa insonlarning his – tuyg'ularini tushunish va ularni boshqarish qobiliyati deb ta'riflanadi. Bu yerda ichki va shaxslaaro intellekt e'tirof etiladi. Garchi mazkur ikki tarkibiy qism alohida bilish jarayonlari va ko'nikmalar bilan tushuntirilsada, ular bir –biri bilan uzviq bog'lidir. Mazkur mulohazalar D.V. Lyusinga tegishli sanalib, uning fikricha, emotsional intellektga faqat kognitiv qobiliyatlar nuqtai – nazaridan bu noto'g'ridir, his-tuyg'ularni tushunish va boshqarish qobiliyati shaxsning boshqa sohalariga ham tegishli sanaladi. Ya'ni bu yerda shaxsning individual xususiyatlari, ong sohasining tarkibiy elementlari nazarda tutiladi. Muallif emotsional intellektni kognitiv qobiliyat va shaxsiy xususiyatlar bilan bog'liq bo'lgan ikkilamchi psixologik unsur sifatida ta'riflaydi. Shuningdek, emotsional intellekt insonning hayoti davomida shakllanadi, insonning o'ziga xos individual xususiyatlarini belgilaydi. Va u ko'plab psixologik omillar ta'sirida yuzaga keladi³⁰. Ha albatta, emotsional intellekt tipik xarakterga ega, uni tushunish uchun avvalo, individual psixologik xususiyatlar tabiatini tushunish shart sanaladi.

Boshqa tadqiqotchilardan farqli o'laroq, N.Xoll ham o'z tadqiqotida emotsional intellektning quyidagi tarkibiy qismlarini ajratib o'tadi³¹:

1. Hissiy ong;
2. Tuyg'ularni anglash;
3. O'zini motivatsiyalash;
4. Kuchli hamdardlik;
5. Begona insonlar his – tuyg'ularini tan ola bilish.

Mazkur model mazmuniga ko'ra, hissiy ong nafaqat o'z hislarimiz uchun balki, boshqalarning hislarini tushunishimizga javob beradi.

Tadqiqotchilardan A.V.Karpov va I.M.Skityaevalar, emotsional intellektni “metakognitiv” qonuniyatlar asosida tahlil qilishga harakat qildilar, uni metajarayonli hodisa deb ta'riflaydi³². Chunki, emotsional

³⁰ Lyusin D. V., Ushakov D. V. Vvedenie / Sotsialn y i emotsionaln y intellekt: ot protsessov k izmereniyam // Pod red. Lyusina D. V., Ushakova D. V. M.: Institut psixologii RAN, 2004. – S. 5-11.

³¹ Hol N. On the dimensional structure of emotional intelligence // Personality and Individual Differences. 2000. - V. 29. - P. 313 – 320.

³² Karpov A. V., Skityaeva, I. M. Psixologiya metakognitivn x protsessov lichnosti: monografiya / A. V. Karpov, I. M. Skityaeva. - M., IP RAN, 2005. – S. 77.

intellekt ham bilish jarayonlari, ham irodaviy soha elementlari bilan tavsiflanishi kerak.

Boshqa olimlardan farqli o'laroq, K. Izard o'z integrativ modelida emotsional ongning integral xususiyatlarini hamda emotsional intellektning ayrim jihatlarini, o'ziga xos qobiliyatlar yig'indisi deb tushuntiradi. Ammo, mazkur model emotsional intellekt mazmunida tartibga solish kategoriyasini hisobga olmaydi. Ya'ni iroda funksiyalari ushbu kategoriya uchun shart emas.

Ayrim tadqiqotlar mazmunida, emotsional intellektni qator ijtimoiy-psixologik unsurlar orqali tushuntirilishi holatlarini ham ko'rish mumkin.

Tadqiqotchi R.Kuperga ko'ra, emotsional intellektning quyidagi tarkibiy qismlarini mavjud:

- Hozirgi davrdagi muhit, hayotiy bosimlar, hayotdan qoniqish hissi;

- Hissiy o'zini o'zi anglash, o'z his-tuyg'ularini va boshqa odamlarning his - tuyg'ularini bilish, hissiyotlarni to'g'ri ifodalash, shu jumladan ularni og'zaki ifodalashda ham;

- Niyatlilik, ijodkorlik, kreativlik, moslashuvchanlik, shaxslararo munosabatlar, norozilik hamda boshqa xatti-harakatlar;

- Qadriyatli munosabatlar, nuqtai-nazarlar, rahm-shafqatlilik, sezgi, ishonch, shaxsiy kuch, o'ziga xoslik;

- Umumiy salomatlik, hayot shakli, munosabatlar, munosib ishlash qobiliyati.

Bizningcha, mazkur model har jihatdan boshqa modellarga qaraganda, keng qamrovli o'ta maqbul va izchil mazmunda ishlab chiqilgan. Chunki, yuqori emotsional intellektga ega kishilar albatta ushbu sifatlarga ega hisoblanadilar.

Boshqalar singari, K.V.Petrides va A.Furnhamlar ham emotsional intellekt muammosini tadqiq etib, uni hissiy ma'lumotlarni qayta ishlash qobiliyati deb ta'riflaydilar. Ya'ni qobiliyat xususiyati sifatida, emotsional intellekt – bu shaxsning quyi darajasida joylashgan o'z-o'zini anglash qobiliyatidir³³. Demak, bola o'z –o'zini anglashi bilanoq, boshqalarga xos hissiy kechinmalar mohiyatini anglay boshlaydi.

Biroq, psixolog M.A.Manoylova o'z tadqiqotlarida emotsional intellektni aql, iroda va hissiyot kabi psixologik unsurlarning yaxlit

³³ Petrides K.V., Furnham A. On the dimensional structure of emotional intelligence // Personality and Individual Differences. 2000. V. 29. P. 313-320

jamlanmasi sifatida qaraydi. Mallifning fikricha, emotsional intellekt ixtiyoriy nazoratni amalga oshirish bilan birga, u empatiya, ishonuvchanlik, o'z -o'ziga hurmat, bag'rikenglik kabi tushunchalar bilan ham uzviy aloqador hisoblanadi³⁴.

E.L.Nosenko hamda N.V.Kovrigilarga tegishli emotsional intellektni tadqiq etishning modeli o'ziga xos yangi model sanalib, uning nomi "katta beshlik" modeli deb qayd etiladi. Muallif tadqiqotlarida quyidagilarni aniqladilar. Vijdonlilik – hissiy idrokning ichki omilidir, xayrixohlik esa, shaxslararo omil sanaladi. Hissiy barqarorlik va yangi munosabatlarga ochiqlik – bu shaxslararo munosabatlarda shakllanadigan kompetensiyadir³⁵. Demak, ichki ochiqlik emotsional intellekt rivojlanganligining belgilaridan biridir.

Tadqiqotchi, O.V.Luneva emotsional intellekt namoyon bo'lishini ichki xususiyatlar bilan tushuntirishga harakat qilib, uning belgilari sifatida quyidagi to'rt komponentni ajratadi³⁶:

- Ontologik ichki belgilar;
- Fenomenologik ichki belgilar;
- Sub'ektlarning emotsional qo'zg'atuvchilarga sezgirlik xususiyati;
- Hayotiy muvaffaqiyatlar va su'ektiv tajribalar.

Yuqorida ajratib o'tilgan tarkiblar, muallif nazarida emotsional intellektni shakllantiruvchi ierarxik tizimlar hisoblanadi.

T.I.Solodkova boshqa olimlardan farqli o'laroq, emotsional intellektni emotsional ong orqali tushuntirib, uni insonning o'z maqsadlariga erishish uchun, boshqa shaxslarning maqsad va vazifalarini hamda muvaffaqiyatlarini tushunishga bo'lgan aqliy qobiliyati deb ta'riflaydi³⁷. Ya'ni ichki tuyg'ularni boshqarish - bu boshqa insonlarning his - tuyg'ularini tushunish va boshqarishdir. Mana shu o'rinda, tadqiqotchi D.V.Lyusinning emotsional intellektni tushuntiruvchi modeli mazmuniga to'xtalib o'tish maqsadga muvofiq

³⁴Manoylova M.A. Akmeologicheskoe razvitie emotsionalnogo intellekta uchiteley i studentov pedagogicheskix uchebn x zavedeniy Tekst. Dis. . kand. psixol. nauk / M.A. Manoylova SPb., 2004. – 265 s.

³⁵ Nosenko E.L., Kovrigi N.V.Emotsionalnoe sostoyanie kak oposreduyuyuy faktor vliyaniya samootsenki na effektivnost intellektualnoy deyatel'nosti.//Psixologicheskii jurnal. -Tom 19 -N 1-1998. – S.16-25.

³⁶ Luneva O. V. Emotsionaln y intellekt: istoriya izucheniya i sootnoshenie s sotsialn m intellektom / O. V.Luneva // Teoreticheskie i metodicheskie vopros issledovaniya sotsialnogo i emotsionalnogo intellektov. M.: Izd-vo «Mosk. gumanit. Un-ta». 2008. – S. 26-31.

³⁷Solodkova T.I. Emotsionaln y intellekt kak lichnostn y resurs preodoleniya sindroma v goraniya i yego razvitie u pedagogov: Avtoref. diss. ...kand. psixol. nauk / T.I. Solodkova. Irkutsk, 2011. – 23 s.

sanaladi. Muallif fikricha, tuyg'ularni tushunish quyidagilarni anglatadi³⁸:

- Emotsional holatlarni aniqlay oladi, ya'ni o'ziga yoki boshqa odamga nisbatan hissiy tajribaga ega bo'lish;

- Boshqa insonlar qanday his-tuyg'ularni boshdan kechirayotganini bilish va og'zaki ifodalarni tushuna olish;

- Turli hissiy holatlarni keltirib chiqaradigan sabab va oqibatlarni tushunish;

- Emotsional holatlarning intensivligini seza olish, shuningdek haddan tashqari kuchli hissiyotlarni qaytara olish va nazorat qilish;

- Emotsional hisslarni tashqi ko'rinishini boshqara olish va hokazo.

Emotsional intellekt – bu insonning hayoti davomida shakllanadigan va uning individual xususiyatlari bilan aloqador tushunchadir. Bundan tashqari, T.I.Semenovanning aytishicha, emotsional intellekt o'z mazmunida o'z tuyg'ularini anglash, o'ziga hurmat, himoya mexanizmi, o'ziga ishonch, javobgarlik, bag'rikenglik, o'zini o'zi boshqarish, faollik, moslashuvchanlik, qiziqish, samimiylik, muvaffaqiyat motivlari kabilarni ham qamrab oladi. Keyinchalik, muallif yana bir qator sifatlar xushmuomalalik, altruizm, hamdardlik, boshqa odamning manfaatlarini hisobga olish va o'zini rivojlantirish qobiliyati, odamlarga hurmat, shaxslararo munosabatlarni munosib baholay olish, bashorat qila olish qobiliyati, jamoada ishlash qobiliyati, hamkorlikka moyillik, komformizm kabi xususiyatlarni ham qo'shib o'tadi. Ushbu tahlilda emotsional intellektning ijtimoiy –psixologik jihatlari ko'proq e'tiborga olingan³⁹.

Ma'lumki, javobgarlik fenomeni o'ziga xos psixologik tushuncha bo'lib, uning mazmuni ham emotsional intellekt tushunchasini izohlashda o'ta muhim sanaladi. A.A.Pankratovanning so'zlariga ko'ra, yuqori emotsional intellektga ega bo'lgan insonlar har qanday vaziyatda ham, o'zining emotsional holati uchun javobgarlikni o'z zimmlariga oladilar⁴⁰.

Demak, yuqorida tahlil etilgan emotsional intellekt borasidagi konsepsiyalar mazmunidan shuni xulosa qilish mumkinki, insonda

³⁸ Lyusin D.V. Oprosnik na emotsionaln y intellekt EmIn: nov e psixometricheskie dann e // V kn.: Sotsialn y i emotsionaln y intellekt: ot protsessov k izmereniyam / Otv. red.: D. V. Lyusin, D. Ushakov. M.: Institut psixologii RAN, 2009. S. 264 – 278.

³⁹ Shastina A.E. Emotsionaln y intellekt kak faktor effektivnosti rabot rukovoditelya // V mire nauchn x otkr tiy. 2012. № 12. S. 197-203.

⁴⁰ Pankratova A.A. Prakticheskiy, sotsialn y i emotsionaln y vid intellekta sravnitel'n y analiz / A.A. Pankratova // Vopros psixologii. 2010. № 2. S. 111-119.

emotsional intellektning yuqori darajada rivojlanganligi, undagi ijobiy xulq – atvorlarning garovi hamda turli huquqbuzarliklarning oldini olishning psixologik omili sifatida xizmat qiladi.

Tom ma'noda emotsional intellekt, zamonaviy psixologik tushuncha sifatida, jamiyatning o'ziga xos ijtimoiy-madaniy xususiyatlarini aks ettiruvchi ilmiy kategoriyadir. Xususan, uning zahirida insonning muvaffaqiyat qozonish istagi, shaxsiy va kasbiy o'zini o'zi anglashi, hissiy hayot va boshqa odamlarning hissiy qadrlarini oshirish, boshqa tomondan esa, kommunikativ stresslarning ko'payishi, neyropsixik stresslarning ko'payishi, psixosomatik kasalliklar sonining ko'payishi, kasbiy o'z o'zini anglashdagi qiyinchiliklar, uzoq umr ko'rish kabi unsurlar mazmuni ham mavjud.

Ontogenezda rivojlanish bosqichiga ko'ra, emotsional intellekt tug'ma xususiyat emas, balki biologik va ijtimoiy-madaniy omillar ta'siri orqali xarakterlanadi, bu esa biz tadqiqotchilar uchun, unga turli yosh davrlarida o'ziga xos ta'sir ko'rsatishimizga imkon beradi. Emotsional intellekt o'zini o'zi rivojlantirish, o'zini ongli tartiblash, o'z his-tuyg'ularini va boshqa odamlarning his-tuyg'ularini boshqara olish kabilar sifatida ta'riflanib, u shaxslararo munosabatlarga ijobiy ta'sir ko'rsatadi hamda kasbiy muvaffaqiyatsizliklar oldini olishga katta yordam beradi. Shuni alohida ta'kidlab o'tish joizki, emotsional intellekt mohiyatini o'rganishda psixologik madaniyat tushunchasi muhim sanalib, tadqiqotchi T.V.Manyaninaga ko'ra, emotsional intellekt darajasini baholash quyidagilarda aks etadi⁴¹:

1. Baholash-prognostik;
2. Hissiy-kommunikativ;
3. Tartibga soluvchi;
4. Rag'batlantiruvchi;
5. Refleksli-tuzatuvchi va boshqa funksiyalar;
6. Amalgaga oshirishning o'ziga xos xususiyati ya'ni kognitiv qiymat va semantik soha;
7. Refleks-baholovchi va motivatsion aloqalar bilan affektiv-intellektual o'zaro aloqadorlik va hokazo.

Xulosa qilib aytganda, nazariy jihatdan emotsional intellekt tushunchasi affektiv va intellektual jarayonlarning birlashmasi, to'plami kabi g'oyalarni aks ettiradi. Amaliy nuqtai nazardan esa, bu kategoriya

⁴¹ Manyanina T. V. Emotsionaln y intellekt v strukture psixologicheskoy kultur lichnosti: avtoref. dis.... kand. psixol. nauk: 19.00.01 / T. V. Manyanina. – Barnaul, 2010. – 24 s.

hayotiy faoliyatining turli jihatlarida insonning erishgan yutuqlari bilan bog'liq holda ishlab chiqilgan. Psixologiya fanida, emotsional intellekt borasidagi yangi tadqiqotlardan foydalanish istiqbollari o'z mazmunida, keyingi ilg'or tadqiqotlarning nazariy va amaliy jihatlarida yanada boyitishni maqsad qiladi.

Agar, mahalliy tadqiqotlarimizda emotsional intellektni tadqiq etishning metodik ta'minoti hamda emotsional intellektga xos fenomenologik xarakteristika borasida qator ilmiy izlanishlar amalga oshirilsa, unda nafaqat umumiy psixologiya fani, balki psixodiagnostika fani uchun ham ko'plab yangi konseptual asoslarning yaratilishi ehtimoldan holi emas.

1.3-§. Talabalarda emotsional intellekt rivojlanishining psixologik xarakteristikasi

Ma'lumki, talabalik davri o'spirinlik davrining oxiri, yoshlik davrining boshlanishi bilan tavsiflanib, bunda shaxs nafaqat kasbiy jihatdan kamolotga, balki yetuk shaxs sifatida ham shakllana boradi. Psixologik adabiyotlarda qayd etilishicha, 17- 21 yosh oralig'i inson ijtimoiylashuv bosqichining yetuk pallasi bo'lib, unda bir qator psixologik sifatlar, xususiyatlar, yuksak his – tuyg'ular, burch va qadriyatlar tizimi tubdan o'zgaradi. Agar biz talabani shaxs deb olsak, uning faoliyati to'liq ijtimoiy rollarni o'zlashtirish jarayoni bilan xarakterlanadi.

Tadqiqotchi M.A.Nguenning fikricha, ta'lim jarayoni talabalar shaxsi uchun yuksak axloqiy va estetik his –tuyg'ularni shakllantiruvchi psixologik omillardan biri sanaladi. Ya'ni ularning his – tuyg'ulari faqat o'z manfaati uchun emas, balki jamiyat mafaatlari bilan uyg'unlashadi. Kasbiy bilim va ko'nikmalar asosida, talabalar o'z kelajak yo'lini tanlay boshlaydilar shuningdek, mehnat munosabatlari haqida tasavvurlari yanada ortib, fuqarolik va kasbiy rollarni to'liq anglay boshlaydilar⁴². Bundan tashqari, talabalarning emotsional holati ko'proq ularning akademik muvaffaqiyatlari bilan bog'liq bo'lib, bunday muvaffaqiyatlar zahirida har bir pedagog o'qituvchilarning o'rni beqiyos sanaladi. Chunki, talabalar har bir pedagogga xos aqliy, hissiy, kommunikativ xususiyatlarni o'zlashtira boradi.

⁴²Nguen M.A. Rol emotsionalnogo intellekta v stanovlenii lichnosti studenta-professional / Nguen M.A. // Professionalnoe obrazovanie. Stolitsa. - "Nov e pedagogicheskie issledovaniya". № 5, 2007. – C.137-140.

Ta'kid joizki, har bir oliy ta'lim o'qituvchisi nafaqat intellektual jihatdan, balki shaxslilik fazilatlari jihatdan ham boshqalar uchun namuna bo'la olishlari shart sanaladi. Ta'lim jarayoni bilan bog'liq hamkorlikdagi faoliyat o'z mazmunida, o'zaro qadriyatlarga asoslangan muloqot, ta'lim –tarbiya berishdagi bag'rikenglik, boshqalar kechinmalariga qaratilgan empatik munosabatlar kabilarni ham qamrab olishi lozim sanaladi.

Mohiyatan, talaba so'zi lotincha so'zdan olngan bo'lib, “o'qish”, “mehnat qilish” kabi ma'nolarni angalatadi. Ya'ni bu davr inson tomonidan yangi bilimlarni o'zlashtirish bosqichidir. Universitetda o'qish bir tomondan yaqinlar va ota – onadan uzoqlashish bo'lsa, ikkinchi tomondan yashash joyining o'zgarishi bilan bog'liq kechinmalarning yuzaga kelishi bilan xarakterlanadi. Mazkur ikki omil ham talabalar emotsional intellekti dinamikasi uchun o'ziga xos psixologik shart-sharoitlardan biri hisoblanadi.

I.N.Andreevaning aytishicha, talabalarning yangi sharoitlarga moslashishi va yaqinlaridan uzoqlashishi, ularda ichki nizolarni paydo etadi, ya'ni ehtiyojlar, qiziqishlar va intilishlar yo'nalishida to'qnashuvlar yuzaga keladi. Ichki nizolarning sababi shuki, muammoga oid yechimlarni tanlashdagi qiyinchiliklar va yangi muhitdagi talablarning haddan tashqari yuqoriligidir. Keyinchalik, ushbu muammolarning hal etilishi organizm uchun mamnuniyat va quvonch hislarini kechishini yuzaga keltiradi⁴³. Ha albatta, muallif nazarida ichki nizolarning paydo bo'lishi bu yangi ijtimoiy muhit va uning talabalari bilan bog'liq. Shuningdek, ichki nizolarga munosabat va uni yengish shaxsga xos individual xususiyatlar turiga ham bog'liq sanaladi. Misol uchun, ba'zi talabalar muammoli vaziyatlarda tez yechim topsalar, ba'zilar bunday imkoniyatdan mustasno sanaladilar. Yuqoridagilardan farqli o'laroq, I.S.Stepanovning ta'kidicha, o'quv faoliyati bilan bog'liq muvaffaqiyatsizliklar talabalarda salbiy his – tuyg'ularning namoyon bo'lishini yuzaga keltiradi. Salbiy his – tuyg'ular asta – sekin ko'payib, ular oxir – oqibat umidsizlik tuyg'usini paydo etadi⁴⁴. “Umidsizlik” – bu keng ma'noda barcha qiyinchiliklar va qarama-qarshiliklarni hal qilishning halokatli yo'li sanladi. Ba'zida ayrim talabalarning o'qishni tashlab ketishi va o'z jonlariga qasd qilishlari ham ayrim manbalarda

⁴³ Andreeva I.N. Gendern e razlichiya v sfere emotsionalnogo intellekta // Material Mejdunar. mejdissiplinarnoy nauchno-prakt. konf., 19-20 dekabrya g. Minsk, 2003 . – S. 94.

⁴⁴ Stepanov I.S. Psixologicheskie usloviya formirovaniya emotsionalnogo intellekta lichnosti. Dissertatsiya. 2010. – S.73.

keltirib o'tilgan. Mazkur holat ko'proq, dunyoqarashi cheklanagan, qo'rqqqlikka moyil, ekstremal vaziyatlarda o'zini o'zi boshqara olmaydigan talabalar tipida ko'proq uchraydi. Demak, talaba o'z his – tuyg'ularini har qanday shart – sharoitdalarida boshqara olishni o'rgana borishi lozim sanaladi.

V.V.Volovga ko'ra, talabalar o'quv yilining ikkinchi bosqichida hissiy – emotsional jihatdan o'zi o'zi yaxshi anglay boshlaydilar. Ya'ni ularda xotirjamlik yuzaga kelib, umidsizlik tuyg'ulari ancha kamayadi. Chunki, talabalar bu bosqichda o'z his – tuyg'ulari va kayfiyatlarini tartibga solishda o'ziga xos ko'nikmalarga ega bo'ladilar. Shuningdek, ularning ijtimoiy intellektiga aloqador hayotiy tajribasi, emotsional intellektning takomillashuviga keng imkoniyat yaratadi⁴⁵. Demak, hayotiy tajriba emotsional intellekt rivoji uchun ham o'ta muhim sanaladi.

N.A.Vыskochilning fikricha, tanqidiy fikrlash talabalar emotsional sohasini rivojlantirishning asosiy shartlaridan biri sanaladi. Ayni shu davrda inson kasbiy kamolotining poydevori yaratiladi. Chunki, tanqidiylik yangiliklarga, yangiliklar esa, yangi his – tuyg'ularning yuzaga kelishiga sabab bo'ladi⁴⁶.

Mohiyatan, yoshlik davri bu o'ziga xos sezgirlik davri sanalib, mazkur davrda inson tabiatiga xos bo'lgan his – tuyg'ularning barcha ko'rinishlari takomillasha boradi. Bunga asosiy sabab guruhiiy faoliyat va ta'lim – tarbiya jarayonidagi yuqori bilim ko'nikmalar hisoblanadi. Bandan tashqari, talabalarning emotsional sohasida nafaqat ob'ektiv hislar (ma'lum bir voqeaga, shaxsga, hodisaga yo'naltirilgan), balki umumlashtirilgan his-tuyg'ular ham shakllanib boradi (ijobiy tuyg'ular, salbiy tuyg'ular, hazil tuyg'usi, rahamdillik, samimiylik va hokazo).

Ilmiy jihatdan olib qaralganda, talabalarda emotsional intellektni rivojlantirish ishlari, kasbiy kompetentlik va o'z-o'zini rivojlantirish orqali ham amalga oshiriladi.

Birinchidan, yuqori emotsional intellekt, avvalambor, empatiya, kommunikativ bag'rikenglik, o'zini o'zi anglash va intilishlar darajasining yetarliligi, o'ziga ishonch va akademik qobiliyatlar, o'z his-tuyg'ularidan xabardor bo'lish, ularni boshqara olish, sheriklarining his-tuyg'ularidan xabardor bo'lish hamda o'z kechinmalarini tartibga sola olish qobiliyatlari bilan xarakterlanadi.

⁴⁵ Volov V.V. Innovatsionn y podxod k issledovaniyu bazov x mexanizmov emotsionalnogo intellekta // Aktualn e problem psixologicheskogo znaniya. 2016. № 3. S. 93-102

⁴⁶ V skochil N.A. Determinant urovnya emotsionalnogo intellekta // Kazanskiy pedagogicheskiy jurnal. – 2009. - №№11-12. – S.123-129

Ikkinchidan, emotsional intellektning yuqori darajasiga ega bo'lgan talaba, bu, birinchi navbatda, o'z hayotini, kasbiy yo'lini, o'z hissiy olamini chuqur anglay olgan shu bilan birga, introspeksiyaga (ichki kuzatuvga) moyil hamda o'zini o'zi har tomonlama namoyon qiladigan shaxsdir.

Tadqiqotchi M.M. Sarenkova psixolog talabalar orasida emotsional intellekt xususiyatlarini aniqlash borasida tadqiqot olib bordi. Va oxir – oqibat emotsional intellektning har bir tarkibiy qismlari rivojini hamda emotsional intellektga xos umumiy ko'rsatkichlarni aniqladi. Muallifning xulosalariga ko'ra, psixolog talabalarda “hissiyotlarni anglash” boshqa yo'nalish talabalaridan farqli ravishda, ancha yuqori ko'rsatgichga ega. Bunga sabab, hissiyotlarni anglash va tahlil qilishdagi kompetentlik xususiyatidir⁴⁷. Ya'ni inson hissiyotlari va emotsional sohasi borasidagi bilim va ko'nikmalarning ustunligidir.

Biroq, “his – tuyg'ularni” tartibga solish ko'nikmasi ayrim talabalarda past natijada qayd etilgan. O'z his – tuyg'ularini va boshqalarning his –tuyg'ularini tartibga solish bu refleksiv jarayon bo'lib, u har bir insonda o'ziga xos amalga oshadi. Refleksiya bizningcha, inson tomonidan o'z harakatlarini va voqe'likdagi hodisalarni baholash, vaziyatga qarab ish tutish, xulosa chiqarish, o'z – o'zini anglash kabi jarayonlar bilan tavsiflanadi. Bundan tashqari, hissiy refleksiya – insonning ijobiy va salbiy his-tuyg'ularga nisbatan adekvat munosabatini, hissiyotlarni uyg'otishga qodirligini, ularning ahamiyatliligiga qarab farqlay olishini, undan voz kechishi yoki uni o'zlashtirishi mumkinligi kabilarda ham katta yordam beradi.

V.S.Yurkeevich o'z tadqiqotlarida psixolog R. Bar-On tomonidan ishlab chiqilgan “emotsional intellekt” modelining o'ziga xos alohida besh kichik turini tasniflashga harakat qildi. Muallifga ko'ra ular⁴⁸:

– Ichki intellekt – bu o'z his-tuyg'ularini anglash, o'ziga ishonch, o'zini o'zi hurmat qilish, o'zini namoyon qilish hamda mustaqillik kabi psixologik unsurlardan iborat;

– Shaxslararo munosabatlardagi intellekt – bu empatik munosabatlar, shaxslararo munosabatlar tizimi, ijtimoiy mas'uliyat kabi xususiyatlardan iborat;

⁴⁷ Sarenkova M.M. Emotsionaln y intellekt: ot ierarxicheskix modeley k predstavleniyu o yedinoy kognitivnoy sposobnosti // Psixologicheskie issledovaniya: elektronny y nauchny y jurnal. 2014. № 37. T.7. S.4.

⁴⁸ Yurkevich V. S. Problema emotsionalnogo intellekta. // Prakticheskaya psixologiya obrazovaniya, 2012, № 3 (4) iyul- sentyabr, S. 4–10.

– Moslashishga nisbatan intellekt – bu muammolarni hal qilish, turli voqe'liklarni baholash kabilarda namoyon bo'ladi;

– Stressni boshqarishga nisbatan intellekt – bu shaxsga xos chidamlilik, salbiy impulsni yengish holatlari bilan xarakterlanadi;

– Umumiy kayfiyat – turli vaziyatlarga nisbatan organizmning bir reaksiyalari ya'ni nekbin tipdagi insonlar bunga misoldir. Demak, yuqorida keltirilgan psixologik tarkiblar, emotsional intellekt rivojlanishini va uning barqaror kechishini ta'minlovchi omillar hisoblanadi.

V.V.Boykning so'zlariga ko'ra, emotsional intellekti yuqori bo'lgan shaxslar, o'ziga xos afzalliklari bilan barchadan yaqqol ajralib turadi. Bunday insonlar vaziyatlarni yaxshi tushunadilar, biror holatni oldini olish uchun ertachiroq harakat qilishadilar. Shuningdek, hech qanday stresslar ularning qaror qabulishiga to'sqinlik qila olmaydi⁴⁹. Bunday insonlar kim bilan qanday muloqot qilish sirlarini yaxshi bilishadilar. Mazkur tipdagi insonlar keyinchalik, nafaqat pedagogik faoliyatda, balki ishlab chiqarish sohalarida yoki biznesda ham muvaffaqiyatli ishlay oladilar.

D.B.Lyusin, O.O.Maryutina, A.S.Stepanovalarning xulosalariga ko'ra, hayotda muvaffaqiyatli bo'lish uchun o'ta aqlli bo'lish shart emas, balki yuqori darajadagi emotsional intellektning o'zi kifoya. Mualliflar insonda emotsional intellekt va uning namoyon bo'lish shart – sharoitlarini quyidagilar orqali tushuntirishga harakat qiladilar⁵⁰:

1. Faoliyat jarayonida emotsional intellekt va umumiy intellekt bir –birini to'ldirib boradi, ya'ni o'zlashtirishdagi qiynchiliklar keyinchalik, boshqalar bilan til topa olish ko'nikmalari orqali to'ldiriladi;

2. Emotsional intellektni shakllantirish bolalikdan boshlanadi. Ota-onalarning bir – biriga hissiy yaqinligi, oila muhitida samarali tarbiya muhitini yaratadi;

3. Har bir inson hayotda o'z emotsional intellektini yuqori darajada rivojlantirishga qodir snaladi. Uning rivojlanishi faqat irsiyat bilan belgilanmaydi.

⁴⁹ Boyko V.V. Energiya emotsiy v obshenii: vzglyad na sebya i drugix/V.V. Boyko. – M.: Nauka, 1996. – 154 s.

⁵⁰ Lyusin D.V., Maryutina O.O., Stepanova A.S. Struktura emotsionalnogo intellekta i svyaz yego komponentov s individualn mi osobennostyami — empiricheskiy analiz // Sotsialn y intellekt: Teoriya, izmerenie, issledovaniya / pod red. D. V. Lyusina, D. V. Ushakova. — M.: Institut psixologii RAN, 2011. S. 129 – 140.

A.V.Shilakina talabalar emotsional intellektining kasbiy professionallik bilan aloqadorlik holatlari tadqiq etar ekan, uni quyidagi tarkiblar tasniflaydi⁵¹.

1. Shaxsiy va kasbiy o'sishga, o'zini o'zi rivojlantirishga intilish;
2. O'quv faoliyatida imkon qadar o'zini namoyon qilishga intilish;
3. Hayotga ob'ektiv qarash;
4. O'z – o'ziga nisbatan ijobiy hissiy munosabat;
5. Voqe'liklarni samarali idrok etish va yangi o'quv sharoitida qiyinchiliklarsiz harakat qilish qobiliyati;
6. Mas'uliyatli qaror qabul qilish qobiliyati;
7. Noqulay, stressli, ziddiyatli vaziyatlarda o'z - o'zini boshqarish tajribasiga egalik;
8. Doim yangi g'oyalarni shakllantirishga qobiliyatlilik;
9. Ilmiy loyihalarni yaratish qobiliyati;
10. Turli ilmiy tadqiqot va ijodiy vazifalarini hal qilish tajribasi;
11. Fikrlash va xatti-harakatlarni bajarishdagi avtonomlik, shu jumladan akademik vazifalarni bajarishda ham;
12. O'quv topshiriqlarini bajarishga yo'nalganlik – bu refleksivlikning yuqori darajasi;
13. Yaxshi rivojlangan sezgirlik;
14. Mas'uliyatlilik va intizomlilik;
15. Muloqot uchun doimiy ochiqlik.

Yuqoridagilardan tashqari, talabalarda o'z – o'zini kamol toptirishga yordam beruvchi psixologik omillar sifatida, guruhdoshlar va o'qituvchilar bilan bo'ladigan o'zaro munosabatlar kiritiladi.

N.A.Aminovning fikricha, ta'lim jarayonida amalga oshadigan o'qituvchi – o'quvchi o'rtasidagi o'zaro munosabatlar keyinchalik, talabalar shaxsida emotsional intellekt komponentlarining takomillashuviga sabab bo'ladi⁵². Bunda o'qituvchining roli har jihatdan yuqori sanaladi.

Tadqiqotchi A.I.Savenkov insondagi hissiy reaksiyalar va ularning psixologik tabiatini tadqiq etar ekan, ularni emotsional intellektni namoyon etuvchi immunal tizim deb ta'riflaydi. Ya'ni emotsional intellekt salbiy va ijobiy hissiyotlar bir biridan ajratuvchi, boshqa

⁵¹Shilakina A.V. Razvitie professionalnoy samoaktualizatsii u studentov-psixologov v vuze [Tekst] : avtoref. dis. kand. psixol. nauk : 19.00.07 / A. V. Shilakina. Mosk. gor. ped. un-t. - M.: 2009. - 24 s.

⁵²Yakovleva E.JI. Emotsionaln e mexanizm lichnostnogo i tvorcheskogo razvitiya / E.JI. Yakovleva // Vopros psixologii. №4. - 1997. – S. 20-27.

ta'sirlardan himoyalovchi psixologik kategoriyadir⁵³. Ba'zi tadqiqotchilar boshqa olimlardan farqli o'laroq, emotsional intellekt tabiatini hissiy sezgirlik hamda tashqi ta'sirotlarga nisbatan yuqori qo'zg'aluvchanlik qobiliyatlari bilan tushuntiradi.

N.S.Shuttening aytishicha, ba'zi insonlarda mavjud bo'lgan muloqotga ehtiyojning kamligi va hissiy barqarorlikning pastligi bu hissiy sezgirlikning kuchsizligi oqibatidir⁵⁴. Bundan tashqari, P.P.Platonovga ko'ra, hissiy barqarorlikni ta'minlovchi ichki reguliyatsion jarayon bu iroda sanaladi.

Tadqiqotchi Ye.L.Nosenko hissiy beqarorlikka sabab bo'luvchi omillarga norozilik, o'jarlik, ijtimoiy chetlashish kabi his-tuyg'ularni kiritadi. Chunki, ushbu salbiy tuyg'ular keyinchalik, emotsional intellektning namoyon bo'lishiga to'sqinlik qiladi⁵⁵.

Biroq, K.Izard hissiy beqarorlik tushunchasini yengil qo'zg'alish reaksiyasi deb tushuntiradi. Va bu yuqori ta'sir kuchiga ega bo'lmagan umidsizlik, xavotirchanlik, shubhalanuvchanlik kabil kategoriyalar bilan xarakterlanadi⁵⁶. Muallif o'z mulohazalarida shuni nazarda tutganki, yengil qo'zg'alish reaksiyalari organizm uchun unchalik xavli emas, balki keyingi vaziyatlar uchun signaldir.

F.E. Vasilyuk hissiy sohadagi beqarorlik holatining ikki jihatini farqlaydi va unga affektiv va nevrotik holatlarni kiritadi. Mazkur ta'rifga yaqin "affektiv barqarorlik" tushunchasi mavjud bo'lib, u umupsixologik jihatdan xotirjamlik, manfaatlar barqarorligi deb qaraladi⁵⁷.

Bizningcha, insonning hayot yo'li doimiylik asosida quriladi va usiz hayotiy maqsadlarga erishish mumkin emas. O'zgaruvchanlik shaxsning rivojlanishi va mavjudligi bilan uzviy bog'liq hisoblanadi. Shaxs o'zgaruvchanligi - bu moslashuvchanlikning asosi bo'lib, u ulg'ayishning har qanday bosqichida zaruriy qobiliyatdir.

⁵³ Savenkov A.I. Emotsionaln y i sotsialn y intellekt kak prediktor jiznennogo uspeha // Vestnik prakticheskoy psixologii obrazovaniya. 2006. -№ 1 (6).- S. 30-39.

⁵⁴ Schutte N.S. Emotional intelligence and task performance // Imagination, Cognition & Personality. 2000. – 20 (4). - P. 347-354.

⁵⁵ Nosenko Ye. L. Formirovanie emotsionalnogo intellekta kak faktora preduprezhdeniya stressov x sostoyaniy u detey / Ye. L. Nosenko, A. I. Chobotar, O. B. Elkinbard. // Nauka i osv'ta. - Odessa, 2000. - № 1-2. - S. 190 -192.

⁵⁶ Izard K. E. Psixologiya emotsiy / K. E. Izard; per. s angl. A.Tatbaeva. -SPb.: Izdatelstvo «Piter», 2011. – 464 s.

⁵⁷ Vasilyuk F. Ye. Frustratsiya / F. Ye. Vasilyuk // Psixologiya sostoyaniy: xrestomatiya / sost. T. N. Vasileva, G. M. Gabdreeva, A. O. Proxorov / pod red. A.O. Proxorova. - M.: PER SE: SPb.: Rech, 2004. - S.432-435.

Talabalar emotsional intellekti va uning fenomenologik xarakteristikasi bo'yicha E.L.Nosenko, N.V.Kovrigilar yaratgan model, boshqa modellardan farq qilib, unga ko'ra, emotsional intellektning tarkibiy qismlari quyidagilar bilan tavsiflanadi⁵⁸:

- 1.Vijdonlilik;
- 2.Do'stonalilik;
- 3.Ichki idrok;
- 4.Xayrihohlik;
- 5.Hissiy barqarorlik va hokazo.

Ushbu modelga xos tarkibiy qismlar aynan, talabalar guruhida o'tkazilgan empirik tadqiqot natijalari asosida ishlab chiqilgan.

A.S. Petrovskiy emotsional intellektga xos bo'lgan to'rtta belgini ajratib o'tadi⁵⁹:

- Ontologik ichki belgilar;
- Fenomenologik ichki belgilar;
- Sub'ektlarning emotsional qo'zg'atuvchilarga sezgirligi;
- Hayotiy muvaffaqiyatlar. .

Yuqorida tahlil etilgan barcha nazariy yondoshuvlarning oliy maqsadi bitta, ya'ni emotsional intellektning haqiqiy mohiyatini ochish, kerak bo'lsa uni rivojlantirishning psixologik, pedagogik shart – sharoitlarini aniqlashdir.

Bundan tashqari, emotsional intellekt ko'plab kognitiv jarayonlar, irodaviy sifatlar, refleksiv jarayonlar, ijtimoiy –psixologik sifatlar, muloqot unsurlari kabilar bilan uzviy bog'liq sanaladi. Shuning uchun ham, emotsional intellektni tadqiq etish o'ziga xos murakkab vazifa sanaladi.

⁵⁸Nosenko Ye. L. Yemosiyniy intelekt: konseptualizasiya fenomenu, osnovni funktsii / Ye. L. Nosenko, N. V.

Kov-riga. – Kiiiv, 2003. – 126 s.

⁵⁹Petrovskaya A.C. Emotsionaln y intellekt kak determinanta rezul'tativn x parametrov i protsessualn x xarakteristik upravlencheskoy deyatelnosti: dis. . kandidata psixologicheskix nauk. Yaroslavl, 2007. – 256 s.

II BOB. TALABALAR EMOTSIONAL INTELLEKTINI TADQIQ ETISHNING METODOLOGIK JABHALARI

2.1-§.Emotsional intellektning individual-psixologik strukturasi

Emotsional intellekt va uning strukturasi bir qator psixologik tarkiblardan tashkil topgan bo'lib, ularni aniqlash hozirga qadar P.Solovey va Dj.Mayerlar tomonidan ishlab chiqilgan modellarga asoslanadi. Mualliflarning ta'kidlashicha, emotsional intellekt mazmunini tushuntiruvchi to'rt tarkibiy qism mavjud⁶⁰:

- Hissiyotlarni erkin ifodalash yoki identifikatsiya qilish (o'zini boshqalar o'rniga qo'yib ko'rish);
- Tafakur qilish va fikrlashda his-tuyg'ulardan samarali foydalana olish;
- Har qanday hissiyotlarni tez anglash;
- His-tuyg'ularni ongli ravishda tartibga sola bilish qobiliyati.

Demak, emotsional intellektning namoyon bo'lishi nafaqat identifikatsiya jarayoni balki, konitiv jarayonlarning samarali ishlash faoliyatiga ham bog'liqdir. Shuning uchun mazkur tarkibiy qismlar mohiyatini alohida ko'rib chiqish lozim sanaladi.

1.Hissiyotlarni erkin ifodalash yoki identifikatsiya qilish jarayoni bu – insonlarning o'z sheriklariga va o'z faoliyatlariga his-tuyg'ularini har tomonlama to'g'ri yo'naltira olish qobiliyati hisoblanadi. Tadqiqotchi V.V.Boyko bu holatni quyidagicha izohlaydi: “agar o'zaro munosabatlarda hissiyotlar bir tomonlama yo'naltirilsa, unda shaxs o'z his - tuyg'ularini tartibga solishda qiyinchiliklarga uchraydi”⁶¹.

Bundan tashqari, A.N.Bergfeldning so'zlariga ko'ra, his – tuyg'ularni yaxshi ifoda etish bu boshqalarni tan olish va ijtimoiy moslashuvchanlik uchun eng asosiy shartlardan biridir⁶²;

2. His – tuyg'ulardan foydalanishda fikrlashning roli - bu agar shaxs boshqalarning emotsiyalarini yetarli darajada anglay olmasa, doim tushukunlikni boshdan kechiradi, o'z his – tuyg'ularini ko'proq noverbal

⁶⁰Current directions in emotional Intelligence research / P. Salovey [et al.]. In M.Lewis& J.M. Haviland (Eds.). Handbook of emotions (2nd ed.). – N.Y.: Guilford, 2000. – P. 504 – 520.

⁶¹Boyko V.V. Energiya emotsiy v obshenii: vzglyad na sebya i drugix / V.V. Boyko. – M.: Filin', 1996. – S.58.

⁶²Bergfeld, A.Yu. Psixologicheskaya struktura emotsii v kontekste problem vospriyatiya emotsiy / A.Yu. Bergfeld A.N. Vakurova // Psixologiya XXI veka: tez. mejdunar. nauch.-prakt. konf. stud. i aspirantov, Sankt-Peterburg, 22 – 24 apr. 2005 g.; pod red. B.V. Chesnokova. – SPb.: Izd-vo Sankt-Peterb. un-ta, 2005. – S. 20 – 22

tarzda namoyish etishga odatlanadilar. Chunki, ular shaxslararo munosabatlarda nima sodir bo'layotganligini tushunmaydilar. D.Goulmanning aytishicha, ushbu holat nogiron shaxslarda ko'proq namoyon bo'lib, ularning emotsional intellekt darajasi boshqalarnikidan ancha past bo'ladi⁶³;

3. Har qanday his-tuyg'ularni tez anglash – bu bolalikdan shakllangan emotsional kompetentlik ko'nikmalarining o'ziga xosligi bilan xarakterlanib, u oilaviy muhit, ota-onalarning o'zaro munosablari kabilar bilan tavsiflanadi. Ya'ni bolani haddan ortiq munosabatlardan cheklash keyinchalik, unda sovuqqonlik va loqaydlik xususiyatlarining paydo bo'lishiga olib keladi;

4. His – tuyg'ulardagi ortiqcha ekspressivlik boshqalarda g'azab va xijolat tortish hislarini keltirib chiqarishi mumkin. Bolalar yoshlikdan kattalar yuz ifodasi harakatlari va mimikalarini kuzatib borib, qaysi yuz ifodalari qaysi holatlarga mos kelishini bilib olishadilar⁶⁴. Yuqorida tahlil etilgan tarkibiy qismlar mazmunidan ma'lum bo'ladiki, emotsional intellektning individual xususiyatlari oilaviy muhit, trabiya, o'zaro munosabatlar kabilarga ham uzviy aloqador hisoblanadi.

Ba'zi psixologik adabiyotlarda, emotsional intellektning rivojlanishi milliy – madaniy muhit xususiyatlari bilan ham uzviy bog'liqligi ta'kidlanadi. Bu borada tadqiqotchi D.Masumoto shunday deydi: “bizning yuz ifodalarimiz universal xarakterda bo'lib, namoyon bo'lishiga ko'ra, biologik va madaniy muhit ta'sirlariga uchraydi⁶⁵”.

Emotsional intellekt va his-tuyg'ularni ifoda etishdagi madaniy farqlar masalasini tadqiqotchi P.Ekmanning izlanishlarida ham ko'rish mumkin. Muallifning fikricha, amerikaliklarga qaraganda, yaponlar o'z his-tuyg'ularini ko'proq ijobiy holatlar bilash yashirishga hakarat qilishadi⁶⁶. Shuningdek, insonda shakllangan kollektivistik madaniyat ham kamroq salbiy his-tuyg'ularning namoyon bo'lishiga yordam beradi. Chunki, bunday madaniyat mazmunida hamjihatlikka asoslangan xulq-tvor mavjuddir.

⁶³ Goleman D. Working with emotional intelligence / D. Goleman. – N.Y.: Bantam Books, 1998. – 383 p.

⁶⁴ Kanits fon A. EQ. Upravlenie emotsiyami / A. fon Kanits; per. s nem. – M.: Izd-vo OMEGA-L: Smart Book, 2008. – S.97.

⁶⁵ Masumoto D. Chelovek, kultura, psixologiya. Udiviteln e zagadki, issledovaniya i otkr tiya / D. Masumoto. – SPb.: Praym-Yevroznak, 2008. – 672 s.

⁶⁶ Ekman P. Emotions revealed: Recognizing faces and feelings to improve communication and emotional life / P. Ekman. – New York: Henry Holt and Company, LLC, 2003. – P.93

Yuqoridagilardan farqli o'laroq, Ya.Reykovskiy his-tuyg'ularni individual ifodalashda yuzaga keladigan quyidagi qiynchiliklar turlarini ajratadi⁶⁷:

- Jamiyatda qabul qilingan muloqot va ifoda shakllarini tushunmaslik;
- O'zaro munosabatlarda o'zini tuta bilmaslik ya'ni tanbeh eshitishdan, rad etilishdan, masxara bo'lishdan qo'rqish;
- Irsiy omillar – ota-onalardagi ayrim xususiyatlarning farzandlar xulq-atvoriga o'tishi;
- Oilada mavjud bo'lgan xulq-atvor me'yorlarini hech bir o'zgarishlarsiz o'zlashtirish va hokazo.

Bizningcha, hissiyotlarni intellektual jihatdan farqlash evolyusion xarakterga ega bo'lib, jamiyatdagi madaniy yangilanish bunga katta ta'sir ko'rsatgan. Tuyg'ularni farqlash, ularni ifodalashdan qaraganda ancha murakkab sanalib, u shaxslararo munosabatlarni tez idrok etish qobiliyati bilan ham tavsiflanadi.

Bunday idrok turi shaxslararo hamkorlikning muvaffaqiyatli kechishini ta'minlaydi. Inson emotsiyalarining ekspressivlik xarakterini tadqiq etgan S.L.Rubenshteyn shunday deydi: "inson boshqalarning emotsional holatlarini tushunish uchun avvalo, usha tuyg'ularni o'zi boshdan kechirishi kerak"⁶⁸. Darhaqiqat, insondagi emotsional kompetenlik ko'nikmasi hayot davomida turli ijtimoiy – madaniy ta'sirlar ostida shakllanib boradi.

Emotsional intellektning individual – tipik xususiyatlari haqida so'z ketganda, birinchidan yuz ifodalari, pantomimika hamda og'zaki nutqning o'ziga xos funksiyalarini e'tiborga olish maqsadga muvofiq sanaladi. Ye.P.Ilinning ta'kidicha, og'zaki nutq va yuz ifodalari hissiy ma'lumotlarni uzatishning dastlabki kanallari sanaladi⁶⁹.

Ta'kid joizki, ba'zi psixologik adabiyotlarda emotsional intellektning bir qator konitiv qobiliyatlardan tashkil topganligi keltirib o'tilgan. D.V.Lyusinaga ko'ra, hissiyotlarni idrok etish, samarador fikrlash, tuyg'ularni tushunish va boshqarish emotsional intellektning murakkab tarkibiy qismlaridan sanaladi⁷⁰. Ya'ni ushbu tarkiblar o'z his

⁶⁷ Reykovskiy Ya. Issledovaniya v rajeniya emotsiy / Ya. Reykovskiy // Psixologiya motivatsii i emotsiy; pod red. Yu.B. Gippenreyter, M.V. Falikman. – M.: AST: Astrel, 2009. – S. 423 – 429.

⁶⁸ Rubinshteyn S.L. Osnov obshchey psixologii / S.L. Rubinshteyn. – SPb.: Piter, 2008. – S.256.

⁶⁹ Ilin Ye.P. Emotsii i chuvstva / Ye.P. Ilin. – SPb.: Piter, 2001. – S. 242 – 244.

⁷⁰ Lyusin D.V., Maryutina O.O. Stepanova A.S. Struktura emotsionalnogo intellekta i svyaz yego komponentov s individualn mi osobennostyami: empiricheskiy analiz //Sotsialn y intellekt:

– tuyg‘ularini boshqarish va boshqalarning his-tuyg‘ularini anglash kabi holatlarga javobgar sanaladi.

Yuqoridagilardan farqli o‘laroq, boshqalarning his – tuyg‘ularini muvaffaqiyatli aniqlab olishda shaxs qadriyatlari tizimining roli yuqori hisoblanadi.

I.N.Adreeva emotsional intellekt strukturasining quyidagi tarkiblarini ajaratadi⁷¹:

1.O‘z his-tuyg‘ularini tan olish – bu shaxsning hissiy tajribasi bilan bog‘liq bo‘lib, u shaxslararo munosabatlar, hissiy tajribani birlashtirish va his – tuyg‘ularni tavsiflash, qayta ishlash kabilar bilan xarakterlanadi;

2. His – tuyg‘ularga ega bo‘lish – o‘z –o‘zini boshqarish jarayoni bilan bog‘liq sanalib, uning baqarorligi shaxsda jismoniy va ruhiy salomatlikni ta‘minlaydi;

3. His – tuyg‘ularni tushunish qobiliyati – bu insondagi o‘z-o‘zini anglash, empatiyaning yuqori darajasi, qaror qabul qilish qobiliyati kabilar bilan tushuntiriladi;

4. O‘zaro motivatsiya – Ya’ni his – tuyg‘ular insonlarni harakatga keltiruvchi kuch yoki hissiyotlar tana va ong ta’sir etuvchi psixologik asos sanaladi. Emotsional intellektning strukturasiga asoslanib, uning asosiy tipologik xususiyatlarini ajratib olish mumkin. Ya’ni insonlarga xos bo‘lgan introvertlik, ekstrovertlik va neyrotiz tiplari bunga yaqqol misoldir.

S.P.Derevyankoning xulosalariga ko‘ra, o‘z his – tuyg‘ularini tushunish va boshqarish avvalambor, talabar uchun zarur hisoblangan eng muhim fazilatlardan biri sanaladi. Bunday qobiliyatli talabalar yuqori firklashga moyil, har qanday vaziyatda tuyg‘ularni farqlaydigan, o‘z tuyg‘ularini amaliy jihatdan qo‘llay oladigan tipdagi shaxslar hisoblanadi⁷². Demak, rivojlangan emotsional intellektga ega bo‘lgan talabalar doim yangiliklarga moyil, qiziqish va bilish ehtiyojlari yuqori, doim rivojlanishga moyil, o‘z xatti – harakatlaridan qoniqqan, yangi bilimlarga doim tayyor, mashg‘ulotlarga moslashuvchan kabi xususiyatlarga ega sanaladi.

Teoriya, izmerenie, issledovaniya / Pod red. D.V. Lyusina, D.V. Ushakova.M.: Izd-vo “Institut psixologii RAN”, 2004.– S. 29-36.

⁷¹Andreeva I.N. Ponyatie i struktura emotsionalnogo intellekta // Sotsialnopsixologicheskie problem mentalnosti: 6-ya Mejdunarodnaya nauchno-prakticheskaya konferensiya. – Smolensk, SGPU, 2004. – Ch.1. –S.22-26.

⁷²Derevyanko S.P. Emotsionaln y intellekt: problem kategorialnosti //Psixologiya v sovremennom informatsionnom prostranstve: material mejdunarodnoy nauchnoy konferensii / Smol. gos. un-t. – Smolensk: Izd-vo SmolGU, 2007. – Ch. 1. - S.108-112.

Boshqalardan farqli o'laroq, K.Izardning fikricha, emotsional intellektning strukturasi harakatlantiruvchi, tashkillashtiruvchi, yo'naltiruvchi kognitiv jarayonlar ya'ni irok qilish, ma'lumotlarni saqlab qolish, xatti – harakatlarni tahlil etish kabilar bilan ham tushuntiriladi⁷³.

Yuqorida biz, emotsional intellektning individual xususiyatlariga oid ayrim masalalarni ko'rib chiqdik. Ya'ni mazkur intellektning namoyon bo'lishiga aloqador ayrim kognitiv jarayonlar va motivatsion sohaning aloqadorlik jihatlari tahlil etildi. Quyida emotsional intellekt strukturasi kengroq tushuntirishga oid ishlab chiqilgan modellar haqida batafsil to'xtalib o'tamiz.

1).D.Goulmanning emotsional intellekt modeli tavsifi. Mazkur model mazmuniga muvofiq emotsional intellektning strukturasi quyidagilardan iborat⁷⁴:

1. Hissiy o'zini anglash – ya'ni o'zini yuqori darajada his qiladigan yetakchilar o'z ichki his-tuyg'ulari bilan to'g'ri hisoblashadilar shuningdek, his-tuyg'ularining shaxsiy psixologik holatiga ta'sir etishini yaxshi bilishadilar. Bundan tashqari, ushbu shaxslar o'z qadriyatlariga sezgir va qiyin vaziyatlarda o'zini tutishning eng yaxshi intuitiv usullariga ega sanalishadilar. O'z – o'zini anglash insonda adolatlilik, samimiylik kabi sifatlarni shakllantiradi. Shu bilan birga, ushbu sifatga ega shaxslar o'z his – tuyg'ularini ochiq namoyon etadilar hamda o'z ideallariga qattiq ishonadilar;

2.O'z – o'zini to'g'ri baholash. Odatda, bunday xususiyatli kishilar o'zlarining kuchli tomonlarini yaxshi bilishadi va o'z imkoniyatlarini yuqori baholay oladilar. Shuningdek, bunday insonlar hazil – mutoyiba bilan muloqot qilishadilar. Ya'ni bu vaziyatda har qanday inson muloqotga tez moslashishini yaxshi biladilar. O'zini yuqori baholaydigan rahbarlar odatda kuchli tomonlarini bilishadi va ularning chegaralarini bilishadi;

3.O'ziga ishonch. Bunday xususiyatli insonlar o'zlarining nimalarga qodirligini yaxshi bilishadilar, o'z qadr – qimmatini to'g'ri anglaydilar shuningdek, har qanday qiyin vazifalarni bajarishga doim tayyor turadilar;

4.His – tuyg'ularni jilovlash. Ushbu ko'nikmaga ega bo'lgan shaxslar o'z salbiy hissiyotlarini tez boshqara oladi, hatto ularni o'z foydalari yo'lida ishlatadilar. Bunga misol qilib, og'ir va stressli

⁷³Izard, K. Psixologiya emotsiy / K. Izard; per. s angl. – SPb.: Piter, 2008. –C.105.

⁷⁴Goleman, D. Emotional intelligence / D. Goleman. – N.Y.: Bantam Books, 1995. – P.63.

vaziyatlarda xotirjam va muloyim bo'la oladigan insonlarni olish mumkin;

5. Ochiqlik (samimiylik). Har qanday faoliyatda halol ishlaydigan kishilar qadriyatlarga muvofiq hayot kechirishadi. Ochiqlik bu his – tuyg'ular va e'tiqodlarning samimiy ifodasidir. Bunday shaxslar o'z xato va kamchiliklarini ochiqchasiga tan olishadi hamda axloqsizliklarga ko'z yummasdan unga qarshi kurashishga ham qodir sanalishadi;

6. Moslashuvchanlik. Moslashuvchanlikka ega bo'lgan shaxslar, turli xil talablarni mohirona va kuchni yo'qotmasdan bajara oladilar. Bunday shaxslar notanish tashkilotlarda ham o'zlarini qulay his qiladilar. Bunday shaxslar qiyinchiliklarga moslashuvchan bo'lib, o'zgaruvchan vaziyatga bemalol moslashadi shuningdek, yangi ma'lumotlar oldida inert fikrlashdan yiroqdirlar;

4. G'alaba qozonish istagi. Mazkur xususiyatga ega bo'lgan shaxslar yuqori shaxsiy me'yorlarga ega va ularni doimiy ravishda takomillashtirishga intiladilar. Bundan tashqari, ushbu shaxslar pragmatik bo'lib, oldiga qo'ygan maqsadlariga hech qanday to'siqlarsiz erishishga intiladilar. G'alaba qozonish hissining belgisi – bu o'z ustida mustaqil ravishda ishlash va uni boshqalarga o'rgatishdan iborat;

5. Tashabbus. Mazkur fazilatli kishilar doim o'z imkoniyatlaridan to'g'ri foydalana oladilar hamda zarur bo'lsa qoidalarni buzib bo'lsa ham maqsadga erishadilar. Ish faoliyatida va munosabtlarda xavfni emas ko'proq ijobiy imkoniyatlarni ko'ra oladilar;

6. Hamdardlik. Bunday insonlar boshqalarning his-tuyg'ularini anglashda yetakchi sanaladi. turli xil hissiy vaziyatlarga moslashishlari mumkin. Shuningdek, boshqalarga hamdardlik bildirishga va ruhiy jihatdan boshqa insonning o'rnini egallashga qodirdir. E'tiborli jihat shuki, mazkur insonlar muloqot qilishda ijtimoiy kelib chiqish holatlariga urg'u berilshmaydilar.

7. Xafagarchilik. Ushbu tuyg'uga moyil kishilar avvalo, o'z ish joylarida ijobiy hissiy muhitni yaratishga intilishadilar, boshqalarning harakatlarini diqqat bilan kuzatib boradilar hamda barcha bilan doim muloqot qilishga tayyor turadilar.

8. Zavqlanish. Bunday ko'nikmaga ega shaxslar boshqalarga o'z xulq-atvorlarini namuna qilib ko'rsatadilar. O'z jamoasi yoki yaqinlarini doim biror bir vazifalarda ilhomlantirib turadilar. Ular kundalik vazifalardan tashqari yangi maqsadlar bilan ham muntazam ishlaydilar.

9. Ta'sir. Ya'ni boshqalarga ta'sir qilish qobiliyatining yuqoriligi bilan tavsiflanib, bunday shaxslar boshqalar uchun doim ideal va ishonarli kishilar sanaladi.

10. O'z-o'zini takomillashtirishga ko'mak berish. Bunday shaxslar boshqalarning qobiliyatlarini rivojlantirishni yaxshi biluvchi, boshqalarga kerakli maslahatlar bera oladigan kishilardir.

11. O'zgarishlarni rag'batlantirish. Bunday fazilatli shaxslar yangi g'oyalarni qo'llab –quvvatlovchi, boshqalarni o'zgarishga majbur qiluvchi, yuzaga kelgan qiyinchiliklarning hal etishning amaliy usullarini tez topuvchi kishilar hisoblanadi.

12. Nizolarni hal qilish. O'zaro munosabatlarda bunday shaxslar har qanday fikrlarni tushunishga qodir, nizolarni hal eta oladigan kishilardir.

13. Hamkorliklik. Bunday shaxslar doim boshqalarga hurmatda, e'tiborda va do'stona munosabatda bo'lishadilar. Ish va o'qish joylarida hamkorlikdagi asoslangan faoliyat muhitini yaratadilar. Ularda insoniy munosabatlar birinchi o'rinda turadi.

Demak, mazkur modelga ko'ra, emotsional intellektning tarkibiy elementlari tasnif etilgan psixologik unsurlar orqali tushuntirilishi lozim sanaladi.

2). Ruven Bar-On bo'yicha emotsional intellekt modeli tavsifi. Mazkur modelga muvofiq, emotsional intellektni belgilovchi tarkiblar quyidagilar hisoblanadi⁷⁵:

1. Introspeksiya – o'z ichki hissiyotlarini qanday kechayotganligi sezish, boshqalarga qanday ta'sir qilishini bilish;

2. Ishonchlilik – o'z fikrlari va his-tuyg'ularini ochiq ifoda etish, qat'iylik va o'z nuqtai nazarini himoya qilish qobiliyati;

3. Mustaqillik – o'zini yo'naltira bilish va boshqara olish;

4. O'z – o'zini hurmat qilish – o'zining zaif tomonlarini tan olish va zaif tomonlariga qaramay, o'z haqida yaxshi fikr yuritish qobiliyati;

5. O'z – o'zini anglash – o'z ishidan va shaxsiy hayotdagi yutuqlaridan qoniqish qobiliyati;

6. Shaxslararo munosabatlarda ustunlik va muloqotda til topish qobiliyati;

7. Hamdardlik – bu boshqalarning nimani his qilayotganligini va o'ylayotganligini tushunish qobiliyati;

⁷⁵ Bar-On R. Emotional and social intelligence: Insights from the Emotional Quotient Inventory / R. Bar-On, J. Parker // Handbook of emotional intelligence. – San Francisco: Jossey-Bass, 2000. – P. 363 – 388.

8.Ijtimoiy mas'uliyat – bu boshqalar bilan ijobiy hamkorlik qila olish va guruhning foydali a'zosi bo'la olish qobiliyati;

9.Shaxslararo munosabatlar – har qanday holatlarda murosaga kela olish va ijtimoiy yaqinlikka egalik qobiliyati;

10.Moslashuvchanlik (adaptivlik) – vaziyatlarga moslashuvchanlik, real hayotiy qarashlarga egalik;

11.Haqiqatni anglash – barcha narsalarni asl holicha ko'rish qobiliyati;

12.Muammoni hal qilish qobiliyati – muammoni aniqlash va uning samarali yechimlarini yaratish qobiliyati;

13.Stressga bardoshlik – xotirjam va diqqatli bo'lish, salbiy voqealar va qarama-qarshi hissiyotlarni konstruktiv ravishda taslim bo'lmasdan hal qila olish qobiliyati;

15.Impulsiv nazorat– vasvasaga tushmasdan shoshilinch choralarni ko'rish qobiliyati;

16.Nekbinlik – bu insonning noqulay sharoitlarda ham haqiqiy ijobiy munosabatlarni saqlab qolish qobiliyati;

17.Baxt – bu hayotdan mamnun bo'lish, o'ziga va boshqalarga ma'qul bo'lish, xursandchilik va quvonch bilan sevimli mashg'ulotlarni bajarish qobiliyatidir;

Demak, muallifning fikricha emotsional intellekt shunchaki tushuncha emas, uning modeli tarkibi psixikaga xos qator xususiyatlar, holatlar hamda ko'plab fenomeologik unsurlardan tashkil topgan.

3). Dj.Mayer va P.Soloveylar tomonidan ishlab chiqilgan emotsional intellekt modeli tavsifi quyidagilarda o'z aksini topgan⁷⁶.

– His – tuyg'ularni baholash va ifodalashdagi aniqlik. Tuyg'ular biz uchun tashqi dunyoda sodir bo'layotgan muhim voqealar haqida signal berish tizimidir. O'zi his-tuyg'ularini va boshqa odamlar boshdan kechirayotgan his-tuyg'ularni aniq tushunish inson uchun o'ta muhimdir. Ushbu ko'nikma hissiyotlarni jismoniy holatdan va fikrlardan, tashqi ko'rinish va xulq-atvor bo'yicha aniqlashni ta'minlaydi;

– Intellektual faoliyatda hissiyotlardan foydalanish. Ya'ni bizning his-tuyg'ularimiz fikrlash jarayonimizga ta'sir qiladi. Tuyg'ular bizning e'tiborimizni muhim voqealarga yo'naltiradi, ular bizni muayyan harakatlarga tayyorlaydi. His – tuyg'ularni boshqarish orqali inson,

⁷⁶ Salovey P. Some final thoughts about personality and intelligence / P. Salovey, J.D. Mayer // Personality and Intelligence / Eds. by R.J. Stenberg, P. Ruzgis. – Cambridge, UK: Cambridge University Press, 1994. – P. 303 – 318

dunyoning turli jihatlarini ko'ra oladi va turli muammolarni samarali hal qilishga qodir hisoblanadi;

– Tuyg'ularni tushunish. Tuyg'ular tasodifiy voqea emas, ular ma'lum sabablarga ko'ra yuzaga keladi va qoidalarga muvofiq o'zgaradi. Mazkur holat hissiyotlar asosini aniqlashni, hissiyotlarni tasniflashni, so'zlar va hissiyotlar o'rtasidagi bog'liqlikni tan olish imkoniyatlarini aks ettiradi;

– Tuyg'ularni boshqarish. His – tuyg'ular fikrlashga jarayoniga ta'sir eta oluvchi jarayon bo'lganligi bois, ularni mantiqiy ketma – ketlikda tushunish, ulardan to'g'ri foydalanish o'ta muhim sanaladi. Ba'zi psixologik manbalarda emotsional intellektning rivojlanishining psixologik mezonlari sifatida, hissiy barqarorlik fenomeni qayd etiladi.

Tadqiqotchi F.Yu.Vasilyukning fikricha, o'zlarining hissiy reaksiyalarini yaxshi nazorat qila oladigan insonlar yuqori hissiy barqarorlikka ega insonlar sanaladi⁷⁷. Mazkur ta'rifda hissiy barqarorlik holati irodaviy sifatlar orqali nazorat qilinishi nazarda tutilgan. Ya'ni sabrtoqatlilik, qat'iyatlilik, o'zini o'zi boshqarish kabilar chidamlilikda namoyon bo'ladi, va bu keyinchalik hissiy barqarorlikka olib keladi. V.M.Pisarenko hissiy barqarorlik holati kechishini quyidagilar orqali tushuntiradi⁷⁸:

– Emotsional – ixtiyoriy ya'ni insonning o'z hissiyotlariga egalik qilish darajasi;

– Hissiy motorik – bu psixomotor barqarorlik ya'ni hissiy kechinmalarning xatti – harakatlar bilan uyg'unligi deb qaraladi.

P.M.Yakobson ham emotsional barqarorlik borasida o'ziga xos yondoshib, uni har qanday vaziyatda faoliyatni muvaffaqiyatli bajarishga hissa qo'shadigan jarayon deb ta'riflaydi⁷⁹. Darhaqiqat, emotsional barqarorlik nafaqat vaziyat, balki barqaror insoniy munosabatlarning sharti ham sanaladi. Demak, emotsional intellekti yuqori darajada rivojlangan insonlar o'z his-tuyg'ularini yaxshi bilishadilar shuningdek, jamiyatda ularning xatti-harakatlari ko'proq tan olinadi. Keyingi paragraflarda, emotsional intellektning rivojlanishiga

⁷⁷Vasilyuk F.E. Tipologiya perejivaniya razlichn x kriticheskix situatsiy /F. Ye. Vasilyuk // Psixologicheskiy jurnal. – 1995. – T. 16. – № 5. – S. 104-114.

⁷⁸Pisarenko V. M. Rol psixiki v obespechenii emotsionalnoy ustoychivosti cheloveka / V. M. Pisarenko // Psixologicheskiy jurnal. – 1997– № 1. – S. 62-72.

⁷⁹Yakobson P. M. Psixologiya chuvstv i motivatsii. Izbrann e psixologicheskie trud (Seriya «Psixologi otechestva») / P. M. Yakobson. – M.: Prosvetnenie, 1998. – S.66.

ta'sir etuvchi psixologik omillar va ularning mazmun mohiyati masalalariga batafsil to'xtalib o'tishga harakat qilamiz.

2.2-§. Talabalar emotsional sohasining psixologik xususiyatlari

Talabalik davri emotsional soha rivojlanishining o'ziga xos davri sanalib, uni tahlil etish emotsional intellekka xos ayrim psixologik asoslarni tadqiq etish ham sanaladi. Bundan tashqari, mazkur paragrafda hissiy sohaning nima ekanligi, talabalar hissiy sohasi xarakteristikasi, hissiyotlarning inson psixikasi va xatti – harakatlariga ta'siri kabi masalalarni imkon darajada yoritishga harakat qilamiz.

Hissiy soha turli kechinmalarga asoslangan murakkab regulyatsion jarayon sanalib, u hayotiy tajriba, ta'lim – tarbiya, ijtimoiy muhit va ayrim irsiy omillar orqali takomillasha boradi. G.V.Bulanovanning fikricha, talabalar faoliyatida hissiy soha quyidagi funksiyalarni bajaradi⁸⁰:

- Har qanday muvaffaqiyatli harakatlarni rag'batlantirish;
- Xulq – atvorni tartiblash va boshqarish;
- Ongni axborotlar oqimi bilan ta'minlash;
- Kutilmagan vaziyatlarni baholash.

Yuqoridagi tasniflardan shu narsa ma'lum bo'ladiki, hissiy kechinmalar inson uchun nafaqat rag'batlantiruvchi kuch balki, psixikani axbrotlar oqimi bilan ta'minlovchi tizim ham hisoblanadi.

Tadqiqotchi I.A.Vasilev shaxs intellektual emotsiyalarini tadqiq etar ekan, u haqda shunday deydi: “emotsional jarayonlarda talaba faoliyatining maqsad va vazifalari noyob tarzda namoyon bo'ladi. Ya'ni talabalar u orqali qilayotgan ishlari va atrof – muhitda sodir bo'layotgan hodisalarga munosabat bildiradilar. Yosh xususiyatlari esa, uning his – tuyg'ulari va ichki dunyosini yanada boyitadi. His – tuyg'ularning yorqin va mazmunli bo'lishi talabalardagi faollikni rag'batlantiradi hamda hayotiy qiyinchiliklarni yengishida ularga yordam beradi⁸¹.

Bundan tashqari, o'quv faoliyati talabalar hissiy sohasida o'ziga xos tajribalar paydo etadi. Bunday foydali hissiy tajribalar organizmdagi fiziologik jarayonlarga ham ijobiy ta'sir etadi. Ilmiy tuyg'ular yurak

⁸⁰Bulanova G.V. Emotsionalnoe sostoyanie studentov kak faktor ix uchebnoy uspehnosti: Avtoref. ...kand. ped. nauk. L. – 1989. – 16 s.

⁸¹Vasilev I.A. Rol intellektualn x emotsiy v regulyatsii m slitelnoy deyatelnosti Psixologich. jurnal. 1998. —Tom 19. 4 – S.49 – 60.

urishi, nafas olish, ovqat hazm qilish, endokrin bezlar kabi organlar faoliyatiga samarali ta'sir etadi. Shuningdek, ilmiy tuyg'ular qator psixik jarayonlar idrok, diqqat, xotira, tafakkur jarayonlariga ham o'ziga xos o'zgarishlar paydo etadi⁸². Demak, hissiy soha insonning intellektual rivojlanishi uchun ham psixologik asos sifatida ahamiyatli sanaladi.

O.A. Proxorovning aytishicha, talabalar hissiy kechinmalarining aniq, ravshan ifodalari o'qishga kirish imtihonlarida, o'qish vaqtidagi topshiriladigan fan imtihonlarida ko'proq namoyon bo'ladi⁸³. Darhaqiqat, hissiy sohadagi bunday hayotiy tajribalar o'z – o'zidan, talaba shaxsi shakllanishiga, uning dunyoqarashiga, voqe'likka munosabati kabilarga katta ta'sir ko'rsatadi.

O'quv jarayonidagi topshiriqlar hissiy kechinmalarning intensivligiga, xilma – xilligiga, birining boshqasiga o'tishiga hamda yuksak kechinmalarning jadal shakllanishiga ham ta'sir etadi.

M.G. Yanovskayaning fikricha, emotsional barqarorlik talabalar uchun qiyin vaziyatlarda faoliyat samaradorligining asosiy shartidir. Talabalar hissiy sohasining tarkibiy qismlari sifatida mas'uliyatlik va javobgarlik ham kiritiladi. Chunki o'qishdagi natijalar uchun bu ikki xususiyat o'ta muhim hisoblanadi⁸⁴.

O'tgan asrning ba'zi tadqiqotlarida, his – tuyg'ularning inson psixikasiga ta'siriga oid ayrim qiziqarli ma'lumotlarni ko'rish mumkin.

Ana shunday ilmiy tadqiqotlar sifatida V. Vund va D. Xebblarning ilmiy izlanishlarini misol qilish mumkin. Ular inson organizmidagi emotsional qo'zg'alish kuchlarini eksperimental asosda o'rganishgan.

D. Xebbning fikricha, biror kishining faoliyatdagi muvaffaqqiyati organizmning uyg'onish kuchiga bog'liq⁸⁵. Muallifning mulohazalaridan shu narsa ma'lumki, har qanday erishilgan muvaffaqqiyat hissiy qo'zg'alish, kuchli istaklar orqali amalga oshadi. Ushbu mulohazalardan farqli o'laroq, V. Vundning ta'kidicha, insonning aqliy faoliyati va shaxs sifatlarining shakllanishida hissiyotlarning o'rni yuqori sanaladi. Ya'ni hissiyotlar inson psixikasini boyitadi shuningdek, hissiy kechinmalarining xarakteri qo'zg'alish, barqarorlik, qoniqish, qoniqmaslik,

⁸²Yastrebova G.A. Formirovanie emotsionalnoy kultur budumix pedagogov Dis. ...kand. ped. nauk. Volgograd. 1998. – S.67.

⁸³Proxorov A.O. Psixicheskie sostoyaniya i ix proyavleniya v uchebnom protsesse. Kazan, 1991. – S.45.

⁸⁴Yanovskaya M.G. Emotsionalno - sennostn e texnologii npravstvennogo vospitaniya. Kirov: Izd-vo VGPU, 1998. – 93 s.

⁸⁵Hebb D.O. The Organization of Behavior. New York, (reprint) 1998.– P.102.

zo'riqish va bo'shashish kabi holatlarda ko'proq namoyon bo'ladi⁸⁶. Demak, ushbu ikki mualliflarning fikrlaridan shu narsa ma'lumki, faoliyatda eng yuqori natijaga erishish uchun juda zaif va juda kuchli hissiy hayajonlanish shart emas. Ya'ni har bir kishi uchun ishda, yuqori samaradorlikni ta'minlaydigan optimal hissiy qo'zg'aluvchanlik bo'lishi lozim.

Avvalambor, hissiy uyg'oqlikning maqbul darajasi ko'plab omillarga bog'liq, ya'ni:

- Bajarilayotgan faoliyatning xususiyatlariga hamda uni amalga oshirish shartlariga;

- Shaxsning individual xususiyatlari va motivatsion sohasi xususiyatlariga;

- Ayrim holatlarda hissiy qo'zg'alish faoliyat uchun ijobiy turtki bermaydi balki, uni tartibsizlashtiradi va boqarib bo'lmaydigan holatga keltiradi.

Ba'zi olimlarning fikricha, talabalar faoliyatining hissiy uyg'onish nuqtasi mavjud va u kunning ikkinchi yarmida namoyon bo'ladi. Bundan tashqari, kunning ikkinchi yarmida faoliyatning bo'zilishi ham ko'proq kuzatiladi. Chunki, bu vaqtda barcha insonlar charchaydilar.

Talabalar faoliyatida hissiy stresslar ham kuzatilib, ular qiyin vaziyatlarda yaqqol ko'zga tashlanadi.

V.N.Kolesnikovning so'zlariga ko'ra, imtihonlar bilan bog'liq sharoitlar talabalarda katta ruhiy stress va ortiqcha zo'riqishlarni keltirib chiqaradi. Muntazam stress ostida yurish talabalar shaxsida patogen bo'zilishlarni keltirib chiqaradi. Ya'ni spirtli ichimliklarga ruju quyish, giyohvand moddalarga o'rganish kabi holatlarni keltirib chiqaradi. Imtihonlar bilan bog'liq murakkab vaziyatlar esa, emotsional kechinmalar intensivligi yanada oshiradi. Shu bilan birga, imtihonlarga tayyorgarlik vaqtida ularda yorqin zo'riqishlar namoyon bo'lmaydi balki imtihonlardan so'ng intellektual zo'riqishlar saqlanib qoladi. Talabalar o'z intilish darajalariga ko'ra hamda individual xususiyatlariga qarab quvon, yengillik, norozilik, tushkunlik, chorasizlik kabi his – tuyg'ularni boshdan kechiradilar⁸⁷. Muallif nazarida intellektual tuyg'ular ham talabalar emotsional intellekti rivojlanishida muhim ahamiyatga ega.

⁸⁶ Vundt V. Osnov fiziologicheskoy psixologii. Yestestvoznaniye i psixologiya. V p. 1. S. – Pb.: Tipogr. P.P. Soykina, 2007. – S.44.

⁸⁷ Kolesnikov V.N. Emotsionaln y faktor v strukture lichnosti i uchebnoy deyatel'nosti studentov: Avtoref. dis. kand. psix. nauk. – SPb., 1997. – 16 s.

Ta'lim jarayonida talabalar emotsional sohasida yuzaga keladigan stress holatlari o'z vaqtida professor – o'qituvchilar tomonidan e'tiborga olinmasa, ularda zo'riqish holatlariga nisbatan ko'nikmalar shakllanmaydi.

B.G.Ananevning aytishicha, hayot va mehnat sharoitlari faqat insonning intellektual rivojlanishi uchun emas, balki hissiy emotsional sohasi uchun ham yaratilgan⁸⁸. Demak, ta'lim – tarbiya jarayoni psixik jarayonlar rivojigagina emas, inson emotsional kechinmalari dinamikasiga ham katta ta'sir etadi.

Tadqiqotchi N.A.Kornienkoga ko'ra, talabalarning muvaffaqiyatga erishishga qaratilgan faoliyati quyidagi hissiy kechinmalar turi bilan xarakterlanadi⁸⁹:

- Yuqori xavotirga ega shaxslar muvaffaqiyatsizlik haqidagi xabarlariga javob berishda, kam xavotirga ega insonlarga qaraganda hissiy jihatdan o'ta sezgirdirlar;

- Yuqori xavotirli insonlar stressli vaziyatlarida yoki muammolarni hal etish holatlarida, kam xavotirga ega shaxslarga qaraganda yomonroq ishlaydilar;

- Muvaffaqiyatsizliklardan qo'rqish – bu juda tashvishlangan insonlarning o'ziga xos xususiyatidir. Ushbu qo'rquv holati ularning muvaffaqiyatga erishish istagini sundira boradi;

- Muvaffaqiyatga erishish motivatsiyasi kam xavotirli insonlar ustun sanaladi. Doimiy xavotirda yurish inson motivlari tizimini ishdan chiqaradi hamda qiziqishlar doirasini kamaytira boradi.

- Xavotir hissi kuchli insonlarda har qanday vazifalar ogohlantiruvchi kuchga ega bo'ladi;

- Doimiy xavotirda yurish insonni tahlikaga solib qo'yadi va ko'plab ob'ektiv xavfsiz vaziyatlar shubha ostida idrok etiladi.

L.N.Rojinaning so'zlariga ko'ra, 18–20 yosh talabalarni shaxs sifatida o'rganish uchun eng maqbul yosh sanaladi. Chunki, bu yosh oralig'ida axloqiy va estetik hissiyotlarning eng faol rivojlanishi ro'y beradi. Shuningdek, ularda xarakterning ijtimoiylashuvi hamda barqarorlashuvi jarayoni kechadi. Bundan tashqari, talabalar kattalarga xos ijtimoiy rollarni to'liq o'zlashtiradilar, vazifalarni bajarishda javobgarlikni his qilishlari yanada orta boradi. Shu bilan birga, ularda

⁸⁸ Ananev B.G. Izbrann e psixologicheskie trud (Pod ruk. A.A.Bodaleva i dr.) Vtor.izd. – M, 2007. – S.56.

⁸⁹ Kornienko N.A. Emotsionalno-nravstvenn e osnov razvitiya lichnosti: Avtoref. dis. kand. psix. nauk. M., 1995. – 28 s.

yangi hayotiy maqsadlar va rejalar paydo bo'lib, unga erishish yo'llari angalanadi⁹⁰.

I.S.Konning xulosalariga ko'ra, talabalar o'z hayotiy rejalarini amalga oshirish quyidagi qarama – qarshiliklarga duch kelishadi:

1. Hayotiy maqsadlarni amalga oshirishdagi moddiy shart – sharoitlarning yetishmasligi;

2. O'g'il bolalarga nisbatan qiz bolalarda hayotiy maqsad va rejalarining amalga oshirishi ko'proq ota – onalarning qadriyatlari bilan bog'liq sanaladi;

3. Kutilmagan yuqotishlar ya'ni sog'likdagi muammolar va yaqinlarning yuqotilishi va hokazo.

Yu.V.Suturining fikricha, guruhiiy o'quv faoliyati ham talabalar emotsional sohasida ko'plab o'zgarishlar olib keladi. Ya'ni guruhiiy munosabatlarni tushunish, empatik hislar, shaxslaaro munosabatlar uchun shart bo'lgan muloqot ko'nikmalarining o'zlashtirilishi bunga yaqqol misoldir⁹¹.

Shuni alohida ta'kidlab o'tish joizki, talabalik davri empatik munosabatlar namoyon bo'lishining ham o'zga xos davri sanaladi. Empatiya esa, o'z navbatida talabalar shaxsida tolerantlik va albtruizm (fidoiylilik) kabi sifatlarning rivojlanishiga keng ta'sir etadi. Mohiyatan empatiya “hamdardlik” ma'nosini anglatib, u shaxslararo munosabatlarning barcha turlarida namoyon bo'ladi. Talabalar guruhida empatik munosabatlarning dinamikasi uchun sog'lom ijtimoiy – psixologik muhit lozim sanaladi.

Ye.V.Altuxovaga ko'ra, talabalar guruhiga xos bo'lgan quyidagi empatik musabatlarni ajratish mumkin⁹²:

– Muloqot sub'ektlarining ikki tomonlama axborot almashinuvida sodir bo'ladigan hamdardlik hislari;

– Hamkorlikka asoslangan empatik hislar;

– Kutilmagan hayotiy vaziyatlar va salomatlik bilan bog'lik bo'lgan vaziyatlarda yuzaga keluvchi empatik hislar.

⁹⁰Rojina L.N. Razvitie emotsionalnogo mira lichnosti. – Mn.: V s. shk., 2003. – 272 s.

⁹¹Suturina Yu.V. Empatiya kak professionalno znachimoe svoystvo lichnosti // Vestnik Buryatskogo gosudarstvennogo universiteta. - 2008. - № 5. - S. 108 – 113.

⁹²Altuxova Ye.V. Psixologo-akmeologicheskiy mexanizm formirovaniya empatii v otnosheniyax prepodavatel-student // Vestnik Tambovskogo universiteta. Seriya: Gumanitarn e nauki. -2007. - № 1. – S. 270 – 274.

Muloqotning kommunikativ funksiyasi rivojida empatiyaning oʻrni muhim sanalib, u maʼlumotlarni tan olish, ularni qabul qilish, qayta ishlash kabi jarayonlarning samarali kechishini taʼminlaydi.

N.V.Noskovaning fikricha, empatiya maʼlumotlarni oʻzlashtirishga ikki xil darajada taʼsir etadi⁹³:

1. Shaxsni muloqot jarayonidagi ishtirokini kuchaytirishga undaydi;
2. Anglangan maʼlumotlarga javobini tezlashtiradi va hokazo.

Tadqiqotchi B.F.Husainovanning soʻzlariga koʻra, talabalar hayotidagi empatik munosabatlarning natijalari quyidagilarda namoyon boʻladi⁹⁴:

- Empatik munosabatlar oʻlar oʻrtasidagi oʻzaro ishonch tuygʻularining shakllanishiga sabab boʻladi;
- Muloqotda psixologik himoya mexanizmini yengishda yordam beradi;
- Boshqalarning hayoti haqidagi tushunchalarni kengaytiradi;
- Talabalarning hissiy tajribasini boyitadi;
- Shaxslilik va qadriyatlar tizimini rivojlantiradi;
- Har qanday axborotlarga nisbatan himoya koʻnikmalarini yanada oshiradi.

Haqiqatdan ham, hamdardlik tuygʻusi inson uchun bir qator refleksiv xususiyatlar shakllanishining asosiy omillaridan biri sanaladi.

Bundan tashqari, empatiya hissi talabalar shaxsiga xos koʻplab xarakterologik sifatlar mazmunini tushuntirishga xizmat qiladi.

Tadqiqotchilardan A.B.Orlova va M.A. Xazanovalarning xulosalariga koʻra, shaxsda namoyon boʻluvchi zoʻrovonlik hamda tajovuzkorlik xususiyatlarining sababi bu, ularda shakllangan past darajadagi empatiyadir⁹⁵. Shuningdek, qator amerikalik psixologlarning fikricha, insonlarda kognitiv empatiya qobiliyatlari mavjud boʻlib, ular ikki inson oʻrtasidagi muloqotda nima sodir boʻlishini oldindan baholash, strategiyalarni tanlash, muloqotni yoʻnaltirish kabi vazifalarni bajaradi⁹⁶.

⁹³Noskova N.V. Longityudnoe issledovanie empatii i refleksii u studentov- psixologov v protsesse obucheniya // Psixologiya obucheniya. - 2009. – S.66.

⁹⁴Xusainova F.B. Rol empatii v professionalno-pedagogicheskom obuchanii // Vestnik Kazanskogo texnologicheskogo universiteta. - 2006. - № 6. – S. 271 – 274.

⁹⁵Orlov A. B., Xazanova M.A. Fenomen empatii i kongruentnost // Vopros psixologii. - 1993. - №4. – S. 42- 49.

⁹⁶ Etchegoen G. Empatiya // Jurnal prakticheskoy psixologii i psixoanaliza – 2003. - №1. – S. 61– 64.

Talabalar guruhiga xos hamdardlik hislarining turlari, shakli, yoʻnalishlari oʻzaro munosabtlar va dunyoqarashlardagi oʻziga xosliklar bilan tavsiflanadi. Yaʼni ayrim talablar boshqalarning omadsizligi va baxtsizliklarini koʻrib, shaxsiy baxtsizlik hissini boshdan kechiradilar. Boshqalar esa, guruh aʼzolarining omadsizliklaridan oʻz qadriyatlarini ustun qoʻyadilar. Bunday insonlar empatiya darajasi past tiplar sanaladi.

Psixologik taʼrifga muvofiq, kuchli empatik shaxslar oʻzining yuqori darajadagi motivatsion va hissiy sifatlari bilan boshqalardan ajralib turadi. Bunda shaxsning qadriyatlari tizimi va motivatsion sohasi koʻproq hisobga olinadi.

Dj.Iganning taʼkidlashicha, empatiya hissi yuqori boʻlgan insonlar boshqalardan farqli ravishda, ijobiy nuqtai – nazar bilan farqlanadilar. Bunday kishilar muloqotda sheriklarning diqqat markazida boʻladilar. Masalan, talabala guruhidagi yetakchi empatiklar insoniy munosabatlarda tez harakat qila oladi, turli vaziyatlarda boshqalar bilan oson til topishadilar, barchaga yoqishni yoqtiradilar hamda boshqaruvning demokratik uslubiga tayanadilar⁹⁷. Bizningcha, muallif nazarida empatiya samarali muloqot qilish uslubining asosiy omillaridan biridir.

Bundan tashqari, empatik hislari yuqori boʻlgan shaxslar boshqalardan farqli ravishda, aybdorlik va uyat hislariga yuqori sezgirliги bilan ham ajralib turadilar. Shuningdek, ular haqiqat nimada ekanligini va qabul qilingan qarorlar mos yoki mos emasligini yaxshi bilishadilar.

V.V.Polyakovaning soʻzlariga koʻra, yuqori darajada hamdardlik koʻrsatadiganlar insonlar oʻzining yumshoq koʻngilligi, xushmuomalaligi kabilar bilan ajralib turadi. Past empatiya hislariga ega insonlarda esa, irodaviy sifatlari koʻproq salbiy xarakterda namoyon boʻladi⁹⁸.

G.Varenshteyn boshqa tadqiqotchilar singari empatiya hissini guruhiy faoliyat orqali tadqiq etgan boʻlib, uning aytishicha, empatiya hissi yuqori boʻlgan insonlar boshqalardan quyidagi xususiyatlari bilan farq qiladilar⁹⁹:

⁹⁷ Igan Dj .Bazisnaya empatiya kak kommunikativn y nav k. Jurnal prakticheskoy psixologii i psixoanaliza / Per. O. Isakovoy, M. Glumchenko, 2000. - № 1.-S.32.

⁹⁸ Polyakova V.V. Formirovanie sotsialno-orientirovann x priznakov empatii i vremennoy perspektiv kak profilaktika otkloneniy v povedenii podrostkov // Sibirskiy pedagogicheskiy jurnal. - 2008. - № 3.–S.76.

⁹⁹ Vanershteyn G. Empatiya kak sovokupnost mikroprotsessov // K. Rodgers i yego posledovateli: psixoterapiya na poroge XXI veka (pod red. D. Breziera). M., “Kogito-sentr”, 2005. – S.97.

1. Markazlashtirish qobiliyati bilan;
2. Boshqalarga ijobiy qarash xususiyati bilan;
3. O‘zaro ta’sirlashadigan vaziyatlarda tezkorligi bilan;
4. O‘zaro hamkorlikda demokratik va altruistik strategiyalari usullariga egaligi bilan;
5. Xarakterining ochiqqligi bilan;
6. Muloqotdagi noverbal xatti - harakatlarga nisbatan sezgirliги bilan;
7. Ijtimoiy hissiyotlarga va axloqiy his - tuyg‘ularga egaligi bilan;
8. Jamiyat tomonidan qabul qiligan xulq-atvor normalariga amal qilish xususiyati bilan;
9. Hissiy barqarorligi hamda boshqalarning kamchiliklariga nisbatan bag‘rikengligi bilan.

Yuqoridagilardan farqli o‘laroq, empatik hislar ba’zan tolerantlik sifatleri bilan ham xarakterlanadi. Bag‘rikenglikning hulq-atvor komponentleri odatda talabalarni ham hayotga, ham yangi mehnat sharoitlariga ko‘nikishini ta’minlashga keng xizmat qiladi .

Bundan tashqari, shaxsning tolerantlik va sotsial tolerantlik xususiyatlari ham ba’zi o‘rinlarda, emotsional intellekt fenomeni mohiyatini tushuntirishga keng xizmat qiladi. Shaxs ushbu xususiyatlari orqali boshqa kishilar, jamoalar hamda millatlarga xos hissiy kechinmalar turini, qadriyatlar tizimini tez anglay oladi. Bu ham xuddi, ijtimoiy intellekt va emotsional intellekt o‘rtasidagi o‘zaro aloqadolikka o‘xshaydi.

Shuni alohida ta’kidlab o‘tish joizki, talabalik davrida emotsional intellektning rivojlanishiga ta’sir etuvchi xususiyatlar sifatida, hissiy barqarorlik va mas’uliyatlilik sifatleri ham ta’kidlanadi.

A.A.Reanning xulosalariga ko‘ra, talabalik yoshidagi hissiy barqarorlik – bu shaxsning ajralmas xususiyatlari sifatida namoyon bo‘lib, u o‘z – o‘zini anglash, dunyoqarash va e’tiqodning rivojlanishi kabilar bilan chambarchas bog‘liqdir. Mazkur yoshda, talaba o‘zining barcha muvaffaqiyatlari va muvaffaqiyatsizliklarini tashqi sabablar bilan emas, balki o‘z qobiliyatlari va sa’y-harakatlari bilan solishtiradi. Shuningdek, qiz bolalarda tashqi nazorat, o‘g‘il bolalarda ichki nazorat tomon siljish kuzatiladi¹⁰⁰. Demak, mazkur mulohazada hissiy barqarorlikning tarkibiy qismi etib, mustaqil ishlash qobiliyatining

¹⁰⁰Rean A.A.Stressoustoychivost i osobennosti motivatsii uchiteley v sokogo i nizkogo professionalnogo urovnya / A. A. Rean, A. A. Baranov // Psixologicheskie problem samorealizatsii lichnosti. – SPb., 1998. – S.194- 202.

shakllanganligi nazarda tutiladi. O'quv faoliyati talaba hayotida katta o'rin egallab, u ko'plab muhim harakatlar, baholashlar, tajribalar bilan xarakterlanadi. O'qitish shaxsiy ma'no anglatib, sub'ektiv ravishda o'zini o'zi takomillashtirish, o'zini o'zi boshqarish va tartibga solish kabilarning shakllanishiga zamin yaratadi.

V.E.Chudnovskiyga aytishicha, kognitiv faoliyatning muvaffaqiyati yoki muvaffaqiyatsizligi bu, shaxsning kognitiv faolligini oshirish yoki pasaytirish uchun rag'batdir. Ya'ni intellektual hissiyotlarning rivojlanishi o'z o'zidan kognitiv qiziqishlarning paydo bo'lishiga olib keladi¹⁰¹. Boshqa olimlardan farqli o'laroq, L.F.Obuxova ham, talabalik davriga xos kognitiv rivojlanish masalalarini tadqiq etar ekan, u haqda shunday deydi: "Bu davrda yoshlar kognitiv va ijodiy faolligi bilan ajralib turadi, ular yangi narsalarni o'rganishga, nimanidir yaratishga intiladilar. Shuningdek, o'g'il bolalar va qizlar turli kasb malakalarini egallashga harakat qiladilar yoki kasbiy yo'naladilar"¹⁰². Mallif bu davrni "intellektual balog'at" yoshi deb ta'riflaydi.

J.L. Kolominskiy o'quv faoliyatida muvaffaqiyat qozonishga moyil bo'lgan talabalarni quyidagicha ta'riflaydi: "bunday tipdagi yoshlar odatda faol va izlanuvchandirlar. Agar, biror maqsadlari yo'lida to'siqlar paydo bo'lsa, ularni yengish yo'llarini tez topadilar. Ushbu talabalar boshqa talabalardan, o'z maqsadlariga erishish yo'lida qat'iyatlili bilan ajralib turadilar shuningdek, ular o'z kelajaklarini uzoq vaqt davomida rejalashtirishga moyildirlar"¹⁰³.

Ta'kid joizki, muvaffaqiyatsizliklardan qo'rquvchi shaxslar ko'pincha, tashabbuskor bo'lishadi, muhim ishlardan qochishadi va doim undan voz kechish sabablarini izlaydilar. Ular o'z oldilariga asossiz yuqori maqsadlar qo'yadilar, hamda o'z imkoniyatlarini noto'g'ri baholaydilar.

Talabalarda emotsional soha va uning o'ziga xos psixologik xususiyatlari muammosini tahlil qilib, quyidagi xulosaga keldik. O'quv faoliyati natijasida hosil bo'lgan his-tuyg'ular nafaqat shaxsning emotsional sohasiga, balki irodaviy sohasiga ham ko'plab o'zgarishlar olib keladi. Bundan tashqari, salbiy his – tuyg'ular motivatsiyalarni

¹⁰¹ Chudnovskiy V. E. Stanovlenie lichnosti i problema smisla jizni / V. E. Chudnovskiy. – M. : MPSI, 2006. – S.45.

¹⁰²Obuxova L. F. Vozrastnaya psixologiya : Ucheb. dlya stud. v ssh. ucheb. zavedeniy / L. F. Obuxova. – 4-ye izd. – M.: Ped. obshchestvo Rossii, 2004. – S.123.

¹⁰³Kolominskiy Ya. D. Psixologiya emotsionaln x otnosheniy / Ya. L. Kolominskiy // Vopros psixologii. – 2008 – № 5. – S. 25.

noaniqlashtirish bilan birga, talabalar o'quv faoliyatining muvaffaqiyatini kamaytiradi hamda o'zini o'zi boshqarish mexanizmlariga ta'sir qiladi. Bundan kelib chiqadiki, hissiy holatini qanday tartibga solishni biladigan talabalar yangi sharoitlarga tezroq moslashadi, ota-onalar, o'qituvchilar va tengdoshlari bilan maqsadga muvofiqlik bilan munosabat o'rnatadilar. Shu orqali ular, biror bir vaziyat natijalarini oldindan ko'rishga va bashorat qilishga erishadilar. O'z hissiy holatini qanday tartibga sola bilmaydigan talabalarda, akademik va ijtimoiy qobiliyatlar o'rtasida o'zgarishlar kuzatiladi. Bunday talabalar ishtiyoqsiz o'qiydilar, oliy maqsadlar yo'lida qiyinchiliklardan qochadilar. Ya'ni ular, har bir vazifalarda shablonli harakatlarni afzal ko'radilar.

Xotima qilib aytganda, talabalar shaxsida rivojlangan barqaror yuksak hislar keyinchalik, ularning shaxs sifatida kamol topishida va hayotiy, kasbiy oliy maqsadlarini amalga oshirishda o'ta muhim sanaladi.

2.3-§. Tadqiqotni tashkil etish bosqichlari va metodikalari tavsifi

Biz o'z tadqiqotimizda to'plagan nazariy ma'lumotlarni, ayrim psixodiagnostik metodikalar orqali amaliy o'ranishga harakat qildik. E'tirof etish kerakki, emotsional intellektni o'rganish borasida ko'plab psixodiagnostik metodikalar, shaxs so'rovnomalari, psixokorreksion ishlanmalar yaratilgan bo'lib, ular qaysidir ma'noda muammoni o'rganishga keng xizmat qilmoqda. Biroq, masalaning eng e'tiborli jihati mavjud.

Hozirga qadar talabalarda emotsional intellektning individual –tipik xususiyatlari masalasiga oid sof psixologik tadqiqotlar mamlakatimiz psixologiya fanida deyarli amalga oshirilmagan. Shuning uchun ham, tadqiqotimizning nazariy –metodologik asoslari ko'proq, uzoq xorij olimlari va rus psixolog olimlari tadqiqotlari mazmuni bilan keng yoritilgan. Bizning mahalliy psixologik tadqiqotlarda ham, ushbu masalani o'rganishga zarurat yuqori sanaladi. Faqat psixodiagnostik metodikalarni aynan emotsional intellektni o'rganish va uning individual – tipik strukturasini ajratishga ko'ra tizimga keltirish, qolaversa, yangi shkalalar kiritish o'ta muhim ishlar turkumidan sanaladi.

Amaliy ahamiyatiga ko'ra, talabalarda emotsional intellektning individual – tipik xususiyatlari o'z mazmunida, emotsional

kompetentlik, empatiyaning rivojlanganligi, hissiy barqarorlik, o'z-o'zini rivojlantrish, irodaviy isfatlar, hayotiy tajriba, shaxslilik sifatleri, ekstroversiya va introvesiya, o'z his – tuyg'ularini boshqara bili hamda nazorat qila olish, boshqalar hissiy kechinmalarini tez anglash, kognitsiyalar, yuqori kommunikatsiya, shaxslararo munosabatlardagi imkoniyat kabi psixologik unsurlarni qamrab oladi.

Yuqorida qayd etilgan, talabalar emotsional intellektining tipik xususiyatlariga xos komponentlarini aniqlash va ularning rivojlanish shart-sharoitlarini tadqiq etish bo'yicha maqsadga muvofiq metodikalar tanlab olindi.

Tadqiqotimizda qo'llanilgan to'rt metodika talabalar emotsional intellektining individual – tipik xususiyatlariga xos quyidagi jihatlarni o'rganishga qodir sanaladi:

- Hissiy vaziyatlarga bo'lgan kognitiv imkoniyatlarini;
- Inson xulq –atvorini anglashga bo'lgan qobiliyatini;
- Ish yuzasidagi munosabatlarda boshqalar holatiga bo'lgan sezgirlik xususiyatini;
- Soitsal intellekt darajasini;
- Muloqot ko'nikmalarini;
- O'z emotsiyalarini tushunish va boshqarish qobiliyatini;
- Shaxslararo emotsional intellekt darajasini;
- Umumiy emotsional intellekt xususiyatlarini;
- Me'yordagi intellekt darajasini;
- Emotsional bilimdonlik imkoniyatini;
- Empatiya darajasini hamda o'zga insonlarning tuyg'ularini seza olish holati kabilarda talabalarning imkoniyatlari va individual –tipik xususiyatlarini aniqlashga keng imkon beradi.

Dissertatsiya ishimizning empirik qismi yuzasidan amalga oshirilgan tadqiqot ishlari bosqichma – bosqich xarakterga ega bo'lib, u mazmunan qidiruv – tayyorgarlik bosqichini, tajribaviy bosqich, nazorat –umumlashtirish bosqichi kabilarni qamrab oladi. Quyida amalga oshirilgan empirik tadqiqotimizning bosqichlari haqida qisqacha ma'lumot berib o'tamiz. Empirik tadqiqotni amalga oshirish uchun mamlakatimiz oliy ta'lim muassasalari ichidan uchta oliy ta'lim muassasasi tanlab olindi. Ya'ni Termez davlat universiteti, Chirchik davlat pedagogika universiteti, Toshkent davlat pedagogika universiteti kabilar.

Talabalarda emotsional intellektning individual –tipik xususiyatlarini o‘rganish davomida quyidagi bo‘lqichdagi empirik tadqiqotlar olib borildi:

1. Qidiruv –tayyorgarlik bosqichi (2017 -2018)
2. Tajribaviy bosqich (2018 – 2019)
3. Nazorat umumlashtirish bosqichi (2019-2020)

Birinchi, qidiruv va tayyorgarlik bosqichida bo‘lib, (2017 – 2018 yillar) unda tadqiqot muammosi bo‘yicha psixologik va pedagogik adabiyotlarning nazariy tahlili o‘tkazildi shuningdek, tadqiqotning maqsadi, ob‘ekti, predmeti, vazifalari, tadqiqotning metodik aparati va yangiliklari aniqlandi. Bundan tashqari, emotsional intellektning mazmun –mohiyati, psixologik tadqiqotlarda emotsional intellekt muammosining o‘rganilganlik holati kabilar tahlil etildi. Oliy ta‘lim muhitining talabalar emotsional intellekti rivojlanishiga ta‘sir etish shart –sharoitlari aniqlandi.

Ikkinchi, tajribaviy bosqich bo‘lib, (2018 – 2019 yillar) unda talabalik davriga xos hissiy soha rivojlanishi, emotsional intellekt strukturasi, talabalar emotsional entellektining rivojlanishiga ta‘sir etuvchi psixologik omillar kabi masalalarni o‘rganish nazariy davom ettirildi. Mazkur nazariy ma‘lumotlar asosida emotsional intellektning tarkibiy qismlari o‘rganildi hamda nazariy xulosalar asosida, keyingi bosqichdagi empirik tadqiqot tashkil etildi.

Uchinchi, nazorat – umumlashtirish bosqichi bo‘lib, (2019 – 2020 yillar) u o‘ziga xos tarzda tashkil etildi. Ya‘ni bunda empirik tadqiqot natijalarining matematik – statistik tahlili va ularning psixologik sharhlari amalga oshirildi. Bundan tashqari, talabalar emotsional intellektning individual – tipik xususiyatlari komponentlari, ulardagi umumiy intellekt hamda emotsional intellekt o‘rtasidagi o‘zaro aloqadorlik jihatlari imkon qadar aniqlandi. Shuningdek, talabalarda emotsional intellekt rivojlanishining individual – tipik xususiyatlari shart –sharoitlari tahlil etildi, tadqiqot ishi yuzasidan umumiy xulosa va amaliy tavsiyalar ishlab chiqildi.

Tadqiqotning metodik ta‘minoti namunasi sifatida, mazkur metodikalarni qo‘llash borasidagi ayrim yo‘riqnomalarni keltirib o‘tamiz.

Dj.Gilfordning “Sotsial intellekt” testi

Yo‘riqnoma: Ushbu test Dj.Gilford (2-ilovap) tomonidan ishlab chiqilgan bo‘lib, insonlardagi sotsial intellekt darajasini aniqlashga qaratilgan. Test topshiriqlari stimulli xarakterga ega bo‘lib, test matni 4

ta subtestdan iborat. Har bir subtest alohida tushuntiriladi va topshiriqlar bosqichma bosqich bajariladi.

1-subtest-Yakunlangan tarix

Bu subtestda Siz Barni personajiga bog'liq sodir bo'lgan hayotiy vaziyatlar tasviriga e'tibor qarating. Barni-taqirbosh kishi bo'lib, ofitsiant bo'lib ishlaydi. Vaziflarda uning rafiqasi, kichkina o'g'li va Barning o'rtog'i ishtirok etadilar.

Har bir topshiriqning chap tomonida ma'lum vaziyatni ifodalovchi bir qator rasmlar joylashtirilgan. Siz undagi personajlarning kechinma va maqsadlarini aniqlang hamda o'ng tomondagi uchta rasmdan vaziyatning uzviy davomi bo'lganini tanlang. Namuna :



Chapdagi rasmda Barni sarmast, tomning chekkasida qo'rqib osilib turgan va o'g'lidan yordam so'rayotgan holati hamda bolaning otasini bunday og'ir vaziyatda turganini ko'rib, tashvishlanayotganligi ifodalangan .

1-rasmda keltirilgan vaziyat topshiriqning to'g'ri javobdir. Shu sababli javoblar varaqsida 1 raqami aylana ichiga olinadi. 1-rasmdagi Barnining o'g'li bilan rafiqasi devorga narvon qo'yib unga yordam berishga harakti aks ettirilgan holat vaziyatning mantiqiy davomi sanaladi.

2-va 3-rasm unchalik to'g'ri javoblar emas. 2-rasmda Barnining tomdan mustaqil tushayotgan holati hamda 3-rasmda rafiqasi bilan o'g'li uni ustidan kulib turgan holatlar mantiqan to'g'ri kelmaydi.

Shunday qilib, har bir topshiriqda chapdagi rasmdagi vaziyatdan keyin nima sodir bo'lganligini personajlarning kechinmalari va harakat maqsadlari asosida aytib berishingiz kerak.

Javob uchun Siz o'zingizga eng qiziqarli bo'lgan rasmni talab qolmang. Balki tipik va mantiqan topshirilgan vaziyatning uzviy davomini taklif eting. tanlangan rasmning quyi qismidagi raqam nomerini javoblar varaqasida qayd eting. Test kitobchasini o'ziga hech qanday belgi qo'ymang.

Subtestning bajarish uchun 6 daqiqa vaqt ajratilgan. Topshiriqni bajarilishi uchun ajratilgan vaqt 1 daqiqa qolganda ogohlantirilasisiz.

Topshiriqni tez bajarishga harakat qiling. Bitta topshiriq uchun ko‘p vaqt ajratmang. Murakkab topshiriqni bajarish uchun agar vaqt qolgan bo‘lsa, yana qaytishingiz mumkin. Murakkab vaziyatlarga ham javob bering, hattoki u sizningcha ishonchli javob bo‘lmasa-da.

2- subtest – Ekspressiya guruhlari testi

Bu subtestda siz gavdani tutish, imo-ishora, mimika, ifodali harakatlar, inson holatini aks ettirgan rasmlar bilan ishlaysiz.

Topshiriq mohiyatini tushuntirish uchun sizlarga namuna keltiramiz. Bu misolda chapda bir xil inson holatini ifodalovchi, ya’ni fikr, tuyg‘u, maqsadni ifodalagan rasmlar keltirilgan.



O‘ng tomondagi to‘rtta rasmdan biri shunday holatni, fikrni yoki maqsadni ifodalaydi. O‘sha rasmni topishingiz kerak.

To‘g‘ri javob 2 - rasmda bo‘lib, u chap tomondagi rasmdagi singari holatni (zo‘riqish yoki asabiylashishni) ifodalagan. Shu sababli, javoblar varaqida 2 raqamini aylana ichiga olinadi. 1, 3, 4-rasmlar mos kelmaydi, chunki ular boshqa holatlarni aks ettirgan (quvonch va muvaffaqiyatli holat).

Shunday qilib, o‘ng tomondagi subtestdagi barcha topshiriqlarni o‘ng tomondagi rasmlardan cham tomondagi rasimga mos kelganini toping va uning javoblar blankidagi raqamini belgilang.

Subtestni bajarishi uchun 7 daqiqa vaqt ajratiladi. Vaqt tugashiga bir daqiqa qolganda Sizga ogohlantirish beriladi. Topshiriqni tez bajarishga harakat qiling. Bitta topshiriq uchun ko‘p vaqt ajratmang. Murakkab topshiriqni bajarish uchun agar vaqt qolgan bo‘lsa, yana qaytishingiz mumkin. Murakkab vaziyatlarga ham javob bering, hattoki u sizningcha ishonchli javob bo‘lmasa-da.

3 – subtest “Verbal ekspressiya” testi

Bu testning har bir topshirig‘ini chap tomonida bir kishini boshqa kishiga so‘zlagan jumlasini berilgan bo‘lib, o‘ng tomonida esa muomalaning uch vaziyati keltirilgan. Chap tomonda keltirilgan jumalardan biri boshqa ma’noga ega. Misol keltiramiz.

Kar inson- o‘rtog‘i : “Marhamat qilib, takrorlang”.

Kar odamni o‘rtog‘iga iltimosini tasavvur qilib ko‘ring. 2-3-vaziyatlarda jumalar shunday ma’noga ega. Faqat 1 vaziyatdagi boshqa

ma'noni ifodalaydi. Shu sababli, javoblar varaqasida 1 raqamini aylanacha ichiga olib qo'yning.

Shunday qilib, har bir topshiriqdagi shunday muomala vaziyatini tanlangki, u chap tomondagi qolgan ikki vaziyatdan farq qiluvchi boshqa mazmundagi jumlaning ifoda etsin

Subtestni bajarish uchun 5 daqiqa beriladi. Vaqt tugashiga bir daqiqa qolganda Sizga ogohlantirish beriladi. Topshiriqni tez bajarishga harakat qiling. Bitta topshiriq uchun ko'p vaqt ajratmang.

4- subtest "To'ldirilgan hikoya" testi

Bu subtestda siz Ferdinand haqidagi tarix aks ettirilgan rasmlar bilan ishlaysiz. Ferdinandning rafiqasi va o'g'li bor. U boshliq bo'lib ishlaydi. Shu sababli hikoyada uning xodimlari ham ishtirok etadi.

Har bir topshiriq sakkizta rasmdan iborat. Yuqoridagi to'rtta rasm Ferdinand bilan bog'liq yuz bergan voqealarni aks ettirgan. Ushbu rasmlardan biri esa tushib qoldirilgan. Siz pastdagi to'rtta rasm orasidan yuqorida tushib qoldirilgan suratni o'rniga qo'yishingiz kerak va Ferdinand bilan bog'liq voqeaning mazmunidan to'ldirishingiz lozim.

Agar tushib qoldirilgan rasmni siz to'g'ri topsangiz voqeaning mazmuni, unda ishtirok etayotgan personajlarning tuyg'u va maqsadlari tushunarli va aniq bo'ladi.

Test yuzasidan natijalarni qayta ishlash qoidalarini quyidagilarga asoslanadi. Standart ball mazmuni quyidagicha:

- 1 – ball – inson xulq-atvorini past anglashga qobiliyatlik;
- 2 – ball – inson xulq-atvorini anglashga o'rtachadan past qobiliyatlik);
- 3 – ball – inson xulq-atvorini o'rtachadan me'yordagi qobiliyatlik);
- 4 – ball – inson xulq-atvorini anglashga o'rtachadan yuqori qobiliyatlik;
- 5 – ball – inson xulq-atvorini anglashga yuqori qobiliyatlik.

Dj. Ravenning "Progressiv matritsalar" testi

Mazkur test 1936 yilda Dj.Raven va L.Penrouz tomonidan umumiy intellektni o'lchash maqsadida ishlab chiqilgan (1-ilova). Test progressiv matritsalar ko'rinishidagi ma'lum shakllar, ularning xususiyatlari, xarakteri, o'zaro munosabatlar va munosabatlar yig'indisini idrok qilish qobiliyatlarini o'rganishga qaratilgan.

Yo'riqnoma: Sizga mantiqiy fikrlash va fikran tahlil etishni talab etuvchi 60 ta test-sinov topshirig'i berilgan. Ular 5 ta guruhga ajratilgan

bo‘lib, har bir guruh topshiriqlarini bajarish ma’lum bir turdagi intellektual qobiliyatni (abstrak-mavhum fikrlash, mantiqiy bog‘lanishlarni topa bilish va tahlil etish, predmetni yaxlit va tarkibiy qismlarga ajratgan xolda ko‘z oldiga keltirish, tasavvur qila olish) talab etadi.

Natijalarni qayta ishlash yuzasidan intellekti baholash jadvali mavjud bo‘lib, unga ko‘ra tekshiriluvchilar farqlanadilar:

– 140 ball va undan yuqori – juda yuqori, intellektual yetuk shaxslar;

– 120 ball va undan yuqori – yuqori intellektga ega kishilar;

– 110 –120 ball yaxshi intellekt sohiblari;

– 110 – 110 ball me’yordagi intellekt ;

– 90 – 100 ball o‘rtacha intellekt;

– 80 – 90 ball o‘rtacha kuchsiz intellekt;

– 70 – 80 ball aqlsizlik alomatlari mavjud;

– 50 – 70 ball aqlsiz;

– 20 – 50 ball aqlsizlik o‘rta darajada;

– 0 – 20 ball yuqori aqlsizlik.

D. V. Lyusinaning “Emotsional intellektni” aniqlash so‘rovnomasi (4-ilova)

Yo‘riqnoma: Sizdan 46 ta so‘rovdan iborat anketani to‘ldirishingiz talab qilinadi. So‘rovlarga qanchalar rozi ekanligingizni aniqlang va sizga yaqinroq bo‘lgan so‘zlarni tanlang: “qat’iy qushilaman”, “ko‘proq qo‘shilaman” , “mutlaqo qo‘shilmayman” – “butunlay qo‘shilmayman”. Har bir savol haqida uzoq vaqt o‘ylamang, sezgiingizga suyanib, fikringiz eng yaxshi aks etgan qutiga + yoki – belgisini qo‘ying.

So‘rovnomada natijalarni qayta ishlash uchun quyidagi shkalalar mavjud: Shkalalar ikki guruhga bo‘lingan ya’ni, o‘ziga va boshqalarga qaratilgan.

1. Boshqa insonlarning hiss – tuyg‘ularini tushunish;
2. O‘z his – tuyg‘ularini boshqarish;
3. His – tuyg‘ularini tushunish;
4. His – tug‘ularini boshqarish;
5. Hissiy ifodalarni boshqarish;
6. Shaxslaaro emotsinal intellekt;
7. Tuyg‘ularni tushuna olish;
8. Umumiy emotsional intellekt.

N.Xollning “Emotsional intellektni baholash” testi (3-ilova)

Yo‘riqnoma: quyida keltirilgan savollarda hayotingizning har xil tomonlarini aks ettirgan mulohazalar taqdim etiladi. Siz ular bilan tanishib, o‘zingizga mos kelgan javoblardan birini tanlang va javoblaringiz quyidagi mezonlar yordamida baholang:

Natijalarni ball ko‘rsatkichi: – 3 ball- to‘liq qo‘shilmayman; – 2 ball-qo‘shilmayman; – 1ball-qisman qo‘shilmayman; + 1ball-qisman qo‘shilaman; + 2 ball-qo‘shilaman; + 3 ball-to‘liq qo‘shilaman.

Metodika shkalalari tavsifi:

1. Emotsional bilimdonlik : 1, 2, 4, 17, 19, 25;
2. O‘z emotsiyalarini boshqarish: 3, 7, 8, 10, 18, 30;
3. O‘z o‘zini rag‘batlantiruvchi: 5, 6, 13, 14, 16, 22;
4. Empatiya: 9, 11, 20, 21, 23, 28;
5. O‘zga insonlarning kechinmalarini sezuvchi: 12, 15, 24, 26, 27.

Metodika natijalar umumiy va alohida shkalalari bo‘yicha qiymatlari qo‘yidagi jadvaldagi ko‘rinishda ifodalanadi (2-jadval)

Natijalar ikki jadval asosida sharhlanadi. Bunda emotsional intellekt ko‘rsatkichlari alohida shkalalari bo‘yicha hisoblanganda, quyidagicha ko‘rinish oladi:

– 14 va ko‘p - yuqori; – 8-13 - o‘rta; – 7 va kam - quyi.

Test qoidasiga muvofiq, emotsional intellektning umumiy ko‘rsatkichi yuqoridagilardan farqli o‘laroq, quyidagi ballar orqali izohlanadi:

– 70 va ko‘p - yuqori; – 40-69 - o‘rta; – 39 va kam – quyi va hokazo.

Shuni ta’kidlab o‘tish joizki, mazkur dissertatsiya ishi yuzasidan aniqlangan natijalar faqatgina talabalar guruhi uchun emas, balki umuta’lim maktablarining yuqori sinf o‘quvchilari hamda yosh o‘qituvchilar faoliyati uchun ham ahamiyatli sanaladi.

DJ. RAVENNING «PROGRESSIV MATRITSALAR» TESTI

1936 yilda Dj.Raven va L.Penrouz tomonidan umumiy intellektni o‘lchashga mo‘ljallangan “*Progressiv matritsalar*” testi ishlab chiqildi. Mazkur test ma’lum shakllar, ularning xususiyatlari, xarakteri, o‘zaro munosabatlari va munosabatlari yig‘indisining idrok qilish qobiliyatini o‘rganishga qaratilgan.

Yo‘riqnoma: Sizga mantikiy fikrlash va fikran tahlil etishni talab etuvchi 60 ta test-sinov topshirigi berilgan. Ular 5 ta guruhga ajratilgan bo‘lib, har bir guruxh topshiriqlarini bajarish ma’lum bir turdagi intellektual qobiliyatni

(abstrakt - mavhum fikrlash, mantiqiy boglanishlarni topa bilish va tahlil etish, predmetni yaxlit va tarkibiy qismlarga ajratgan xolda ko‘z oldiga keltirish, fikran tasavvur kila bilish) talab etadi.

DIQQAT ! Har bir topshirik 2 qismdan iborat:


a) 1 - qismda katta to‘rtburchak ramka ichida **TUGALLANMAGAN** ma’lum bir geometrik shakllar majmuasi berilgan;

b) 2 - qismda esa yuqorida keltirilgan shaklni **TUGALLASH** uchun zaruriy elementlar majmuasi keltirilgan.

Sizning vazifangiz ana shu 6 yoki 8 elementlar orasidan yuqoridagi shaklni tugallash uchun mos keluvchi yagona tarkibiy qismni topish va ushbu tanlangan elementni qayd etuvchi javobni javoblar varaqasiga qayd etishdan iborat.



Sinov mobaynida shoshmasdan, tartib bilan ishlang va topshiriqlarni berilgan ketma – ketlikda bajarib boring!

A-criya





1-1



1-2





1-3





1-4





1-5




1-6





1-7






1-8




1-9



1-10






1-11




1-12




B-keriya




2-1





2-2





2-3





2-4





2-5





2-7





2-9





2-6





2-8



2-10





2-11





2-12



C-ceriya





3-1






3-2




3-3






3-4







D-criya









4-5





4-6





4-7



4-8



4-9



4-10

4-11

4-12

E-ceriya

5-1

5-2

5-3

5-4

1 2 3 4 5 6 7 8

5-5

1 2 3 4 5 6 7 8

5-6

1 2 3 4 5 6 7 8

5-7

1 2 3 4 5 6 7 8


5-8

1 2 3 4 5 6 7 8

5-9

1 2 3 4 5 6 7 8

5-10



Intelletni baholash jadvali

№	Aqliy qobiliyat shkalalari	Aqliy qobiliyat darajasi
1	140 va yuqori	Juda yuqori, intellektual yetuk
2	120 va yuqori	Yuqori intellekt
3	110-120	Yaxshi intellekt
4	100-110	Me'yordagi intellekt
5	90-100	O'rta intellekt
6	80-90	O'rta kuchsiz intellekt
7	70-80	Aqlsizlikning ba'zi alomatlari bor
8	50-70	Debil, aqlsizlik
9	20-50	Aqlsizlikning o'rta darajasi
10	0-20	Telba, aqlsizlikning yuqori darajasi

Testning kaliti

№	A	V	S	D	E
	4	2	5	3	7
	5	6	3	4	6
	1	1	2	3	8
	2	2	7	8	2
	6	1	8	7	1
	3	3	4	6	5
	6	5	5	5	1
	2	6	7	4	3
	1	4	1	1	6
).	3	3	1	2	2
..	4	4	6	5	4
?	2	8	2	6	5

IQ natijalarini almashtirish

Ball	8	8,5	9	9,5	10	10,5	11	11,5	12	12,5	13	13,5	16-30
1.	T73	68	65	59	57	53	53	50	48	46	46	46	-
2.	74	70	67	61	58	56	54	41	49	49	48	47	-
3.	76	72	68	62	60	57	55	53	51	50	49	49	-
4.	77	73	70	64	61	59	57	54	52	51	50	50	-
5.	79	75	71	65	63	60	58	55	53	53	52	51	-
6.	81	76	73	67	64	61	59	57	55	54	52	52	-
7.	82	78	74	68	66	63	61	58	56	55	54	54	-
8.	84	79	76	70	67	64	62	60	57	57	55	55	-
9.	85	81	77	71	69	66	64	61	59	58	57	56	-
10.	87	83	79	73	70	67	65	62	60	59	58	57	55
11.	89	84	80	74	72	69	66	64	61	61	59	59	57
12.	90	86	82	76	73	70	68	65	64	62	60	60	58
13.	92	87	83	77	75	71	69	67	64	63	62	61	59
14.	93	89	79	75	73	71	68	65	65	65	63	62	61
15.	95	90	86	80	78	74	72	69	67	66	64	64	62
16.	97	92	88	82	79	76	73	71	68	67	66	65	65
17.	98	94	89	83	81	77	75	72	69	69	67	66	65
18.	100	95	91	85	82	79	76	74	71	70	68	67	66
19.	101	97	92	86	84	80	78	75	72	71	69	69	67
20.	103	98	94	88	85	81	79	76	73	72	71	70	69
21.	104	100	95	89	87	83	80	78	75	74	72	71	70
22.	105	101	97	91	88	84	82	79	76	75	73	72	71
23.	107	103	98	92	90	86	83	81	77	76	74	74	72
24.	108	104	100	94	91	87	85	82	79	78	78	75	74
25.	109	106	101	95	93	89	86	83	80	79	77	76	75
26.	110	107	103	97	94	90	87	85	81	80	78	77	76
27.	112	108	104	98	96	91	89	86	83	82	80	79	75
28.	113	110	106	100	97	93	90	88	83	83	83	80	79
29.	114	111	107	102	99	94	92	89	85	84	82	81	80
30.	116	113	109	109	100	96	93	90	87	86	83	82	82
31.	117	114	110	105	102	97	94	92	85	84	85	84	83
32.	118	115	112	106	103	99	96	96	93	88	88	85	84
33.	120	117	113	108	104	100	97	95	91	90	87	86	86
34.	121	118	115	113	105	103	99	96	92	91	88	87	87
35.	122	120	116	111	107	103	100	97	93	92	90	89	88
36.	123	121	118	112	109	105	102	99	95	93	91	90	90
37.	125	122	119	114	110	107	104	100	96	95	92	91	91
38.	126	124	121	115	112	108	105	102	97	96	94	92	92
39.	127	125	122	117	113	110	107	104	99	97	95	94	94
40.	129	127	124	118	115	112	109	106	100	99	96	95	95
41.	130	128	125	120	117	113	111	108	102	100	97	96	96

42.	131	129	127	121	118	115	112	109	104	102	99	97	98
43.	132	131	128	123	120	117	114	111	106	104	100	99	99
44.	134	132	130	125	121	118	116	113	108	106	102	100	100
45.	135	134	131	126	123	120	118	115	110	109	105	102	102
46.	136	135	133	127	125	122	120	117	112	111	107	105	104
47.	138	136	134	129	126	123	121	119	114	113	109	107	106
48.	139	138	136	130	128	125	123	121	116	115	110	110	108
49.	140	139	137	132	129	127	125	123	118	117	114	112	110
50.	142	141	139	133	131	128	127	124	120	119	116	115	112
51.	143	142	140	135	133	130	128	126	122	121	118	117	114
52.	144	143	142	136	134	132	130	128	124	123	121	120	116
53.	146	144	143	138	136	133	132	130	126	126	123	122	118
54.	147	146	145	139	137	135	134	132	128	128	125	123	120
55.	148	148	146	141	139	137	136	134	130	130	127	127	122
56.	149	149	148	142	141	138	137	136	132	130	130	130	124
57.	151	150	148	144	142	140	138	138	134	134	132	132	126
58.	152	152	151	145	144	142	141	139	136	136	134	134	128
59.	153	152	152	147	145	145	143	141	138	138	137	137	130
60.	155	155	154	147	145	145	143	141	138	138	137	137	130

!6-30 yoshliklar uchun IQ 100 % 3-ildavda keltirilgan, Ancha katta yoshdagilar uchun quyidagi formula bo'yicha hisoblab chiqiladi.

IQ= IQ (3-ildavdagi jadval) x 100 / % quyidagi jadval kыrsatkich olinadi (4-ildav)

$$IQ = \frac{IQ(3 - \text{ildavdagi jadval}) \cdot 100}{\%(4 - \text{ildavdagi jadval})}$$

Yosh	16-30	35	40	45	50	55	60
%	100	97	93	88	82	76	70

Dj.Gilfordning "Sotsial intellekt" testi

1-subtest-Yakunlangan tarix

Bu subtestda Siz Barni personajiga bog'liq sodir bo'lgan hayotiy vaziyatlar tasviriga e'tibor qarating. Barni-taqirbosh kishi bo'lib, ofitsiant bo'lib ishlaydi. Vaziflarda uning rafiqasi, kichkina o'g'li va Barning o'rtog'i ishtirok etadilar.

Har bir topshiriqning chap tomonida ma'lum vaziyatni ifodalovchi bir qator rasmlar joylashtirilgan. Siz undagi personajlarning kechinma va maqsadlarini aniqlang hamda o'ng tomondagi uchta rasmdan vaziyatning uzviy davomi bo'lganini tanlang.

Namuna :



Chapdagi rasmda Barni sarmast, tomning chekkasida qo‘rqib osilib turgan va o‘g‘lidan yordam so‘rayotgan holati hamda bolaning otasini bunday og‘ir vaziyatda turganini ko‘rib, tashvishlanayotganligi ifodalangan .

1-rasmda keltirilgan vaziyat topshiriqning to‘g‘ri javobdir. Shu sababli javoblar varaqsida 1 raqami aylana ichiga olinadi. 1-rasmdagi Barnining o‘g‘li bilan rafiqasi devorga narvon qo‘yib unga yordam berishga harakti aks ettirilgan holat vaziyatning mantiqiy davomi sanaladi.

2-va 3-rasm unchalik to‘g‘ri javoblar emas. 2-rasmda Barnining tomdan mustaqil tushayotgan holati hamda 3-rasmda rafiqasi bilan o‘g‘li uni ustidan kulib turgan holatlar mantiqan to‘g‘ri kelmaydi.


Shunday qilib, har bir topshiriqda chapdagi rasmdagi vaziyatdan keyin nima sodir bo‘lganligini personajlarning kechinmalari va harakat maqsadlari asosida aytib berishingiz kerak.

Javob uchun Siz o‘zingizga eng qiziqarli bo‘lgan rasmni talab qolmang. Balki tipik va mantiqan topshirilgan vaziyatning uzviy davomini taklif eting. tanlangan rasmning quyi qismidagi raqam nomerini javoblar varaqasida qayd eting. Test kitobchasini o‘ziga hech qanday belgi qo‘ymang.


Subtestning bajarish uchun 6 daqiqa vaqt ajratilgan. Topshiriqni bajarilishi uchun ajaratilgan vaqt 1 daqiqa qolganda ogohlantirilasiz. Topshiriqni tez bajarishga harakat qiling. Bitta topshiriq uchun ko‘p vaqt ajratmang. Murakkab topshiriqni bajarish uchun agar vaqt qolgan bo‘lsa, yana qaytishingiz mumkin. Murakkab vaziyatlarga ham javob bering, hattoki u sizningcha ishonchli javob bo‘lmasa-da.

Gilfordning «Sotsial intellekt» testi
1- «Yakunlangan hikoya» subtesti rasmlari






7



8



9



10



11



12





Gilfordning «Sotsial intellekt» testi

2- «Ekspressiya guruhlari » subtesti

Bu subtestda Siz gavdani tutish, imo-ishora, mimika, ifodali harakatlar, inson holatini aks ettirgan rasmlar bilan ishlaysiz.

Topshiriq mohiyatini tushuntirish uchun sizlarga namuna keltiramiz. Bu misolda chapda bir xil inson holatini ifodalovchi, ya'ni fikr, tuyg'u, maqsadni ifodalagan rasmlar keltirilgan.







O'ng tomondagi to'rta rasmdan biri shunday holatni, fikrni yoki maqsadni ifodalaydi. O'sha rasmni topishingiz kerak.





To'g'ri javob 2-rasmda bo'lib, u chap tomondagi rasmdagi singari holatni (zo'riqish yoki asabiylashishni) ifodalagan. Shu sababli, javoblar varaqida 2 raqamini aylana ichiga olinadi. 1, 3, 4-rasmlar mos kelmaydi, chunki ular boshqa holatlarni aks ettirgan (quvonch va muvaffaqiyatli holat).

Shunday qilib, o'ng tomondagi subtestdagi barcha topshiriqlarni o'ng tomondagi rasmlardan chap tomondagi rasimga mos kelganini toping va uning javoblar blankidagi raqamini belgilang.

Subtestni bajarishi uchun 7 daqiqa vaqt ajratiladi. Vaqt tugashiga bir daqiqa qolganda Sizga ogohlantirish beriladi. Topshiriqni tez bajarishga harakat qiling. Bitta topshiriq uchun ko'p vaqt ajratmang. Murakkab topshiriqni bajarish uchun agar vaqt qolgan bo'lsa, yana qaytishingiz mumkin. Murakkab vaziyatlarga ham javob bering, hattoki u sizningcha ishonchli javob bo'lmasa-da.

Gilfordning «Sotsial intellekt» testi
2- «Ekspressiya guruhlari» subtesti rasmlari





Gilfordning «Sotsial intellekt» testi

3- «Verbal ekspressiyasi» subtesti

Bu testning har bir topshirig'ini chap tomonida bir kishini boshqa kishiga so'zlagan jumlasini berilgan bo'lib, o'ng tomonida esa muomalaning uch vaziyati keltirilgan. Chap tomonda keltirilgan jumalardan biri boshqa ma'noga ega. Misol keltiramiz.

Kar inson- o'rtog'i : «Marhamat qilib, takrorlang»

Kar odamni o'rtog'iga iltimosini tasavvur qilib ko'ring. 2-3- vaziyatlarda jumalar shunday ma'noga ega. Faqat 1 vaziyatdagi boshqa ma'noni ifodalaydi. Shu sababli, javoblar varaqasida 1 raqamini aylanacha ichiga olib qo'ying.

Shunday qilib, har bir topshiriqdagi shunday muomala vaziyatini tanlangki, u chap tomondagi qolgan ikki vaziyatdan farq qiluvchi boshqa mazmundagi jumlaning ifodasi bo'lsin.

Subtestni bajarish uchun 5 daqiqa beriladi. Vaqt tugashiga bir daqiqa qolganda Sizga ogohlantirish beriladi. Topshiriqni tez bajarishga harakat qiling. Bitta topshiriq uchun ko'p vaqt ajratmang. Murakkab topshiriqni bajarish uchun agar vaqt qolgan bo'lsa, yana qaytishingiz mumkin. Murakkab vaziyatlarga ham javob bering, hattoki u sizningcha ishonchli javob bo'lmasa-da. Gilfordning «Sotsialnyy intellekt» testi


1. Kishi – o'rtog'iga: «Siz ajoyibsiz».	1. Minnatdor xodim – boshlig'iga. 2. Yaxshi o'quvchi – o'qituvchisiga. 3. Norozi kishi – tanishiga .
2 . Sotuvchi- xaridorga: «Nima kerak bo'lsa oling».	1. Iltifotli o'qituvchi – talabaga. 2. Vrach – mijozga. 3. Asabiylashgan militsioner – zorlanayotgan mast kishiga.
3. Sudya – g'olibga: «Tabriklayman».	1. Ota– g'olibga. 2. Do'st – g'olibga. 3. Mag'lub– g'olibga.
4. Mag'rur ota – do'stiga : «Unga qarang».	1. Rashqchi qiz – do'stiga. 2. Xursand bola– do'stiga. 3. Zavq-shavqqa to'lgan qiz– do'stiga.
5. Kishi – do'stiga: «Nima qilayapsan?».	1. Achchiqlangan ona – bolasiga. 2. Qiziqqan yo'lovchi – o'ynayotgan bolaga . 3. O'qituvchi – namunali o'quvchiga.

6. Vrach – bemor bolaga: «Buni ezg‘ilama».	1. Ona – o‘g‘liga. 2. Jangchi – dushmanga. 3. Ish bilan band ayol–turmush o‘rtog‘iga.
7. Ofitsiantka – mijozga: «Sizga qanday yordam berishim mumkin?».	1. Psixiatr – mijozga. 2. Yo‘lovchi–avariyadan jabrlanayotgan kishiga 3. Gid – turistga.
8. O‘qituvchi-talabaga: «Sen buni juda yaxshi bajara olasan».	1. Rafiqqa – eriga. 2. Ona – bolasiga. 3. Trener – sportchiga.
9. Ota-o‘g‘liga : «Sen menga yoqasan».	1. Aka – singliga. 2. Yosh yigit – do‘stiga. 3. Jiyan – xolasiga.
10. Boshliq – ishchiga: «Bu yaxshi» .	1. Murabbiy – artistga. 2. O‘qituvchi – talabaga. 3. Jabrlanayotgan bola – uni urgan raqibiga.
11. Ona – qochayotgan bolaga: «Jim!».	1. Asabiylashgan ota – chinqirayotgan o‘g‘liga. 2. Yo‘lovchi– shofyorga. 3. Proxojiy – ehtiyotsiz bolaga.
12. Sug‘urta agenti – mijozga: «Marhamat qilib, imzo cheking».	1. Mehmonxona ma’muri – mijozga. 2. Kolleksioner avtograf – «yulduzga». 3. Kassir – qarzdoga.

4- «To‘ldirilgan hikoya» subtesti

Bu subtestda siz Ferdinand haqidagi tarix aks ettirilgan rasmlar bilan ishlaysiz. Ferdinandning rafiqasi va o‘g‘li bor. U boshliq bo‘lib ishlaydi. Shu sababli hikoyada uning xodimlari ham ishtirok etadi.

Har bir topshiriq sakkizta rasmdan iborat. Yuqoridagi to‘rta rasm Ferdinand bilan bog‘liq yuz bergan voqealarni aks ettirgan. Ushbu rasmlardan biri esa tushib qoldirilgan. Siz pastdagi to‘rta rasm orasidan yuqorida tushib qoldirilgan suratni o‘rniga qo‘yishingiz kerak va Ferdinand bilan bog‘liq voqeani mazmunan to‘ldirishingiz lozim. Agar tushib qoldirilgan rasmni siz to‘g‘ri topsangiz voqeaning mazmuni, unda ishtirok etayotgan personajlarning tuyg‘u va maqsadlari tushunarli va aniq bo‘ladi. Misol keltiramiz:






Bu voqeaning uchinchi rasmi tushib qoldirilgan. Voqea yakunida biz Ferdinandning tushlik haqidagi orzulari aksincha kutganidek chiqmay, uydan ranjib chiqadi. Ferdinandning rafiqasi asabiylashgan va guyoki o'g'liga kitobni o'qiyotgandek o'ltiribdi Bola esa xotirjam o'ltiribdi. Bularning barchasi o'zaro bog'liq, Ferdinand ishdan qaytgandan so'ng yuvinib, oshxonani iflos qiladi. Bu esa rafiqasini achchiqlantirdi. Shunday qilib ushbu voqeada tushib qoldirilgan holat 4 –rasm bo'lib, u javoblar varaqasida aylana ichiga olinadi.

1, 2, 3 –rasmlar mazmunan bu voqeaga mos kelmaydi.

